

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

KUNDUZGU BO'LIM

**«Rangtasvir mashg'ulotlarida I.I.Shishkinning «Bug'doyzor» asaridan nusxa  
ko'chirish metodikasi»  
Malakaviy bitiruv ishi**

Bajaruvchi: Xakimov M.S.  
Ilmiy rahbar: Irgashev D.

Malakaviy bitiruv ishi “Badiiy grafika va uni o'qitish metodikasi” kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2016 yil 10 maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi.  
(bayonnoma №10)

Kafedra mudiri: D.Irgashev

Malakaviy bitiruv ishi YaDAK ning 2016 yil “\_\_\_”iyunidagi majlisida himoya qilindi va \_\_\_\_\_foizga baholandi (bayonnoma №\_\_\_).

YaDAK raisi:

A'zolari:

1. \_\_\_\_\_
2. \_\_\_\_\_
3. \_\_\_\_\_

**Samarqand 2016**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>I bob. Kasb-hunar kollejlarda rangtasvir mashg'ulotlari masalasi .</b>	6
1.1. Kasb-hunar kollejlarda rangtasvir mashg'ulotlarining ukitilishi. .	6
1.2. Kasb-xunar kollejlarda rangtasvir mashg'ulotlarining axamiyati. ....	11
.....	
1.3. Kasb- hunar kollejlarda rangtasvir mashg'ulotlarining uziga xos xususiyatlari. ....	19
Birinchi bob bo'yicha xulosa. ....	25
<b>2 bob. Kasb-hunar kollejlarda rangtasvir mashg'ulotlari va uni ukitish metodikasi</b> .....	27
2.1. Kasb-hunar kollejlarda rangtasvir mashg'ulotlari va uning urganilishi jarayonlari .....	27
2.2. Kasb-hunar kollejlarda rangtasvirda nusxa kuchirish mashg'ulotlari.	34
2.3.Kasb-hunar kollejlari rangtasvir mashg'ulotlarida I.I.Shishkinning «Bugdoyzor» asaridan nusxa kuchirish usullari». ....	40
2.4.Tajriba-sinov ishlari va uning natijalari. ....	
<b>Umumiy xulosalar</b> .....	47
<b>Taklif va tavsiyalar.</b> .....	
<b>Galossariy</b> .....	
<b>Foydalanilgan adabiyotlar</b> .....	49
<b>Ilovalar</b> .....	51

**Kirish.**

**Mavzumizning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgandan istiqloq sharofati to'fayli o'tgan qisqa vaqt ichida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Ko'plab davlatlar O'zbekistonda o'zining xalqaro elchixonalarini ochib jahon hamjamiyati ishonchli a'zosiga aylandi. Dunyo mamlakatlari orasida Respublikamizning turli doiralardagi nufuzi oshdi. Prezident I.A.Karimov "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nomli maruzasida davlatimiz kelajagini yetuk kadrlar amalga oshirishini ta'kidlab, shunday fikrlarni bildirib, "Amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning taqdiri shu masalaga, ya'ni kadrlar tayyorlashga chambarchas bog'liqligini biz aniq va ravshan anglab olishimiz lozim"-degan edi.

Respublikamizda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" O'zbekiston respublikasi Vazirlar Maxkamasining farmonlari, qarorlari ta'limning hamma sohasida islohatlarni jadallashtirish va rivojlantirishga qaratildi. Yoshlarni barkamol qilib tarbiyalash uchun ham oliy ta'lim va kasb - hunar ta'limida katta burilishlarni amalga oshirdi. Umumiy ta'lim maktabini tamomlagandan so'ng o'quvchilar ikkinchi bosqich bo'lgan kasb-hunar kollejni tanlagan sohasi bo'yicha tugatishini majburiy qilib quydi. Mana shu talablar asosida o'qituvchi kadrlarni tayyorlash masalasi ham muhimlashdi. Ana shu o'z navbatida hamma fan o'qituvchilariga ham katta ma'suliyatlar yuklaydi.

Umumiy ta'lim maktablari tasviriy san'at o'quv predmeti konsepsiyasi, kasb - hunar ta'limi uchun ham barcha fanlarini ukitish talablari, davlat ta'lim standarti yaratildi. Unda o'qitishning yangilangan dasturlariga amal qilish masalalari qo'yilgan. Shuningdek, birinchi navbatda kadrlarning bilim, kunikma va malakalariga e'tibor berib yoshlarni komil bo'lishi kerakligi anglatildi.

**Mavzuning ishlanganlik darajasi.** Kasb-hunar kollejarida ma'lum yo'nalishlar bo'yicha tayyorlanayotgan yoshlar va kasb- hunar ta'limidagi tasviriy san'at predmetini o'qitishdagi masalalarning ukitilishida grafika, rangtasvir, san'at tarixi kabi mutaxassislik fanlari ukitiladi. Shuningdek, natyurmort kompozitsiyasi tuzishni o'rganish va narsaning o'ziga qarab rasmini chizish masalasini mashg'ulotlarning asosini qamrab oladi. Ana shu masalalarda ko'plab olimlar ijod

qilganlar. Xama rassomlar xam asarlardan nusxa kuchirish orkali uning eng sara sirlarini urganadi. Qadimda ham narsaning o'ziga qarab rasm chizish bo'lganligini topilgan qadimiy rasmlar, miniatyuralardan ko'chirib chizish mumkinligini bilamiz.

Keyingi vaqtlarda ijod qilgan va alohida restaviratorlar, suratlardan kuchirib rasm chizgan rassomlar ko'p. Rossiyada I.I.Shishkin, I.Levitan, I.I.Ivanov, I.Ayvazovskiy kabi rassomlar manzara janrida ijod kilgan. O'zbekistonda N.Kashina, Z.Kovolevskaya, G'.Abduraxmanov, N.Karaxon, Taldikin, Z.Inog'omov, N.Quziboyev, V.Ufimsev, I.Xaydarov, va boshqalar manzara janrida ham ijod qilganlar. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi masalasi bo'yicha p.f.d., professor R.Xasanov, professor M.Nabiyev, p.f.n., dosent B.Oripov, B.Boymetov, N.Oydinov, N.Tolipov, A.Abdurasulov, Q.Qosimov, B.Azimova, H.Egamov, D.Ergashevlarning ilmiy ishlari, metodik qo'llanmalari, kitoblari va ilmiy maqolalarida kisman yoritilgan. Ularda manzara janring nazariy tomonlari hamda darslarni o'tish jarayonidagi dars ishlanmalari qilingan. Xuddi shu kabi rassiyalik rassom metodistlardan N.N Rastovsev, N.Kuzin, I.I.Yusov, B.Nemenskiy, I.Shoroxov va boshqalar tasviriy san'at ta'limining turli tomonlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqqanlar. Ammo shunday bo'lsada nusxa kuchirib chizish muammosi haligacha to'la o'z yechimini topgan emas. Shularni hisobga olib va uni chuquroq o'rganish maqsadda mavzuni ***«Rangtasvir mashgulotlarida I.I.Shishkinning «Bugdoyzor» asaridan nusxa kuchirish metodikasi»*** deb belgilab olishni lozim topdik.

**Maqsad:** kasb-hunar kollejlarning rangtasvir mashgulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlarini takomillashtirish.

**Vazifalari:** kasb-hunar kollejlarning rangtasvir mashgulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlarining qonunlarini o'rganish,

kasb-hunar kollejlarning rangtasvir mashgulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlarining ahamiyati va o'rnini aniqlash

kasb-hunar kollejlarning rangtasvir mashgulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlarining muammolarini ochib berish va bartaraf etish

kasb-hunar kollejlarning rangtasvir mashg'ulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlarining shakl va usullarini o'rganish

kasb-hunar kollejlarning rangtasvir mashg'ulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlarining turli usullariga oid dars ishlanma tayyorlash.

**Obyekti:** kasb-hunar kollejlarning rangtasvir mashg'ulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlarini o'rganish jarayoni.

**Predmeti:** kasb-hunar kollejlarning rangtasvir mashg'ulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish darslari.

**Metodlari:** nazariy tahlil, kuzatish, dars o'tish va o'rganish.

**Ilmiy farazi:** kasb-hunar kollejlarning rangtasvir mashg'ulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlarini o'rganish samarali boladi, agar;

- kasb-hunar kollejlarning rangtasvir mashg'ulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlarining qonuniyatlariga amal qilinsa;

- kasb-hunar kollejlarning rangtasvir mashg'ulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlarining taraqqiyoti o'rganilsa;

- kasb-hunar kollejlarning rangtasvir mashg'ulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlarining mazmuni va ahamiyati hisobga olinsa;

- kasb-hunar kollejlarning rangtasvir mashg'ulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlarining o'ziga xosligini anglansa;

- kasb-hunar kollejlarning rangtasvir mashg'ulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlarining bosqichlaridan foydalanib ish yuritilsa;

- kasb-hunar kollejlarning rangtasvir mashg'ulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlarining turli yo'llari va usullaridan dars jarayonida foydalanilsa.

**Yangiligi:** kasb-hunar kollejlarning rangtasvir mashg'ulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlarini takomillashtirilganligi.

**Nazaariy va amaliy ahamiyati:**

- kasb-hunar kollejlarning rangtasvir mashg'ulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlarining tarixi yoritib berildi.

- kasb-hunar kollejarining rangtasvir mashgulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlarining pedagogik ahamiyati ochildi.
- kasb-hunar kollejarining rangtasvir mashgulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlarining ba'zi masalalari belgilandi.
- kasb-hunar kollejarining rangtasvir mashgulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlarining turli metodikasi yaratildi.

**Tuzilishi:** Kirish, ikki bob, yetti fasl, umumiy xulosa, adabiyotlar ruyxatidan iborat bo'lib 50 betni tashkil etadi.

## **I bob. kasb-hunar kollejarining rangtasvir mashgulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlari masalalari.**

### **1.1 Adabiyotlar tahlili.**

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1997. 19 b. O'zbekiston Respublikasida qobul qilingan ta'lim to'g'risidagi qonun jamiyatimizning kelajagi poydevorini belgilab beradigan hujjatdir. Prezidentimiz o'zining "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" deb nomlangan ma'ruzasida komillik sari yo'limizni belgilab bergan edi. Bu qonunda ana shu yo'lni bosib o'tish bosqichlari, yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Ta'lim to'g'risida qonunning barcha moddalari yurtboshimizning takliflari asosida tayyorlangan.

2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.:Sharq, 1997.32-63 b.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tub islohotlardan biri ta'lim sohasi bo'lib hisoblanadi. Bu asar ana shu doimiy o'zgarmas bo'lib kelgan shuolar ta'limidan o'zgarishli islohatlar natijasidir. Insoniyat jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanish yo'lining tanlab olinishidir. Shuningdek, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyasi va talablari asosida jahon ta'limi standartlariga muvofiq keluvchi uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitni

yaratdi. Ta'lim sohasida olib borilayotgan hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat siyosati ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlardan bin sifatida e'tirof etilgan. Mana shu islohatimizning asosiy yo'lini ham belgilab beradi. Ta'lim va tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohatimiz ana shu qonun va kadrlar tayyorlash bilan bog'liq ekanligini aniq ko'rsatib beradigan davlat hujjati bo'lib qoldi.

3.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. 174 b. Prezidentimizning ushbu asarida ma'naviyat tushunchasi, insonning ichki dunyosi, bugungi kunda insonlarda ma'naviy mafkurani shakllantirish, Sharq mutafakirlarining ma'naviyatni shakllantirish borasidagi fikrlari, mustaqillik davrida amalga oshirilgan ishlar, oilaning jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi hamda oila, mahalla va maktabning ma'naviyatni shakllantirishdagi o'rni kabi masalalarga e'tibor qaratilgan. Shaxs shakllanishida ma'naviyatning o'rni ajdod va avlodlarimizning ma'naviy merosidan foydalanish, xayotda o'z o'rnini topish, madaniyat va san'atning neqadar kerakligini o'qtirib o'tiladi.

4.Oripov B. N. Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. Oliy o'quv yurtlarining "Badiiy grafika" va "San'atshunoslik" fakulteti talabalari uchun o'quv-metodik qo'llanma. T.: "Ilm Ziyo", -2013,-152 b. Tasviriy san'at fanini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari to'g'risida yozilgan bu metodik qo'llanmada didaktika, metodika, zamonaviy texnologiyalar to'g'risida batafsil ma'lumotlar beriladi.

5.R.Hasanov. Tasviriy san'at asoslari. Toshkent, 2008 yil. 265 bet. Bu asarda tasviriy san'atning asosiy manbalari haqida gap boradi. Tasviriy san'atning paydo bo'lishi, turlari va janrlari to'g'risida atroflicha xikoya qilingan. Rassomlar va ularning asarlari tahlillari ham beriladi. Asarlarning rangli, rangsiz suratlari keltirib o'tilgan. Shuningdek grafika, rangtasvir, dekorativ amaliy san'at, haykaltaroshlik, me'morchilik san'ati haqida fikrlarini bayon qiladi. Tasviriy san'at tarixiy taraqqiyoti to'g'risida ham to'xtalib sharq va g'arb o'yg'onish davrini ba'tafsil yoritib beradi.

6.R.Hasanov. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. Toshkent, 2004 yil. 294 bet. Kitobida yangi pedagogik texnologiyada dars o'tish masalasiga qisman tuxtaladi. Unda ko'proq turli o'yin usullarini, krasvord, topishmoq suratlar haqida fikr yuritib uni dars jarayoniga olib kirish mumkin deydi. Bu metodik kitob tasviriy san'at ta'limida o'qiyotgan talabalar va o'qituvchilari uchun tayyorlangan. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi mustaqillikdan keyin birinchi marotaba R.Hasanov tomonidan yozilgan edi. Bunda tasviriy san'at o'qitish metodikasining talablari va darslarni olib borish, tashkil etish, tarixi haqida fikr yuritilgan. Ko'pgina xollarda noanaviy darslar, ishlanmalar, krasvord, testlar ham keltirib o'tiladi.

7. M.Nabiyev. Nusxa kuchirish metodikasi. Toshkent: Ukituvchi, 1991.

Bu metodik tavsiyanomada rassom asarlari, turli suratlardan turli usullarda nusxa kuchirishning bir necha metodik tomonlari yoritib berilgan. Kitobda kvadratga olib ishlarni kupaytirish yullari, iplpr orkali tasvirlarni kattalashtirish usullari xakida fikrlarini bayon kiladi. Rangli suratlar (reproduksiyalar) bilan bezatilgan bulib barchaga kizikarlidir.

9.D.Ergashev. 5 – sinf tasviriy san'at darslari. (metodik tavsiya). Samarqand, VPKQTMOI, 2008 yil, 62 bet. Tasviriy san'at o'qitishning 5-sinflarda olib borilishi dars ishlanmalari tarzda berilgan. Sinf dasturi asosida tayyorlangan bu kitobda zamonaviy o'qitish haqida ham gapiriladi va ishlanmalar tayyorlangan. Bu mashg'ulotlarini tashkil etish va darslarni o'tishga bag'ishlangan.

10. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. (O'quv qo'llanma). T.: "Fan", 2006 yil. 261 b. Mazkur o'quv qo'llanmada pedagogik texnologiya nazariyasining shakllanish va taraqqiyot tarixi, uning mohiyati, texnologik yondoshuv tamoyillari, o'quv jarayonini loyihalash, xususiy fanlarni o'qitish jarayoniga tadbiq etish haqida so'z yuritiladi. Tasviriy san'atning ananaviy va noanaviy ko'rinishlari, uning asoslarini yorituvchi sohalar to'g'risida fikr qisman yuritiladi.

11. Boymetov B., Abdurasulov R., Nurtoyev O'., Rajabov R. Tasviriy san'at. 5 – sinf uchun darslik. T.: "Ilm – Ziy", 2014 yil. 86 b. Darslik tasviriy san'at dasturida



berilgan soatlarni to'liq qamrab olgan holda yozilgan. Darslarning olib borilishi, ma'lumotlar, rassom asarlari, chizish usullari ko'rsatib o'tiladi. Rangli reproduksiyalar bilan bezatilgan va yaxshi tasviriy ko'rinishlar bor. Lekin darslarning zamonaviy o'qitilishi to'g'risida ma'lumotlar ko'p berilmaydi. Faqat dedaktik o'yinlardan, testlardan foydalanish haqida aytiladi.

12. Hasanov R.H. Tasviriy san'at. 1-sinf uchun darslik. T.: "Ilm-Ziyo", 2000 yil, 76 b. Darslik tasviriy san'at dasturida berilgan soatlarni to'liq qamrab olgan holda yozilgan. Darslarning olib borilishi, ma'lumotlar, rassom asarlari, chizish usullari ko'rsatib o'tiladi. Rangli reproduksiyalar bilan bezatilgan va yaxshi tasviriy ko'rinishlar bor. Lekin darslarning zamonaviy o'qitilishi to'g'risida ma'lumotlar ko'p berilmaydi. Faqat dedaktik o'yinlardan, testlardan foydalanish haqida aytiladi.

13. Sulaymonov A., Abdullayeb N. Tasviriy san'at. 7-sinf o'quvchilari uchun metodik qo'llanma. Toshkent, "Sharq, matbaa konserni" nashriyoti. 2007 yil, 132 b. Darslik tasviriy san'at dasturida berilgan soatlarni to'liq qamrab olgan holda yozilgan. Darslarning olib borilishi, ma'lumotlar, rassom asarlari, chizish usullari ko'rsatib o'tiladi. Rangli reproduksiyalar bilan bezatilgan va yaxshi tasviriy ko'rinishlar bor. Lekin darslarning zamonaviy o'qitilishi to'g'risida ma'lumotlar ko'p berilmaydi. Faqat dedaktik o'yinlardan, testlardan foydalanish haqida aytiladi.

14. Isoqova M., Sulaymonov A., Zokirova M., Hasanov R. Tasviriy san'at. 2-sinf uchun darslik. Tasviriy san'at dasturida berilgan soatlarni to'liq qamrab olgan bu darslikda ham zamonaviy o'qitish texnologiyasi bo'yicha gap aytilmaydi. Darslarning olib borilishi, ma'lumotlar, rassom asarlari, chizish usullari ko'rsatib o'tiladi. Rangli reproduksiyalar bilan bezatilgan. Darslarning zamonaviy o'qitilishi to'g'risida ma'lumotlardan dedaktik o'yinlarnigina olish mumkin.

15. Isoqova M., Sulaymonov A., Zokirova M., Hasanov R. Tasviriy san'at. 3-sinf uchun darslik. Darslik tasviriy san'at programmasini yoritadi. Darslarning borishi, rassomlar haqidagi ma'lumotlar, rassom asarlari, chizish usullari ko'rsatib o'tiladi. Rangli reproduksiyalar bilan yaxshi tasviriy ko'rinishlar bor xolos. Lekin fanning zamonaviy o'qitilishiga doir ma'lumotlar berilmaydi.

16. Isoqova M., Sulaymonov A., Zokirova M., Hasanov R. Tasviriy san'at. 4-sinf uchun darslik. Darslik tasviriy san'at dasturida berilgan soatlarni qamrab olganligi bilan yaxshi. Bunda darsning olib borilishi, ma'lumotlar, rassom asarlari, chizish usullari haqida aytiladi. Rangli reproduksiyalar bilan bezatilgan va yaxshi tasviriy ko'rinishlar bor.

Umuman olganda zamonaviy o'qitish texnologiyalari to'g'risida faqat tasviriy san'at faniga doir alohida kitob, metodik qo'llanmalar chiqqan emas. Faqat turli maqolalar, metodik ko'rsatmalar, tavsiyanomalar chop etilgan xolos.

## **1.2. kasb-hunar kollejlarning rangtasvir mashgulotlarida rassom asarlaridan nusxa kuchirish ishlarining mazmuni.**

Tasviriy san'atining ilk tarixi qadimgi dunyo san'ati bilan nomlanib o'zoq o'tmishga ega. O'zbekiston tasviriy san'ati o'zining taraqqiyoti davomida vatanimiz tarixi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy voqyealari bilan uyg'un bog'lanib bormoqda. Shuning uchun ham kasb - hunar kollej tasviriy san'atidan dars olib boradigan mutaxassis o'qituvchi-pedagoglar zamonamiz va jahon ta'lim andozalariga moslashtirilgan ko'rinishlarda dars olib borish metodlarini o'rganib olishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Respublikamizning o'tmishiga nazar solar ekansiz, uning nihoyatda keng ko'lamli taraqqiyot bosqichlarini, har bir davr o'z mazmuni, shakli, xususiyatlariga ega ekanligiga guvoh bo'lamiz. Albatta o'tmish zarvaraqlarini o'rganib ko'p ma'lumotlarni olishimiz mumkin bo'lgan manbalar talaygina.

Respublikamiz prezidenti I.A.Karimovning aytganidek «Yangi demokratik ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim bo'ladi. Bunda o'zbek xalqining va respublika hududida yashovchi boshqa xalqlarning milliy, tarixiy, va madaniy an'analari, ma'naviy tajribasi ta'lim-tarbiya tizimimizga uzviy ravishda kiritilishi zarur». (I.A.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura, 1 tom, Toshkent, «O'zbekiston», 1996, 48 – bet.) Shuning uchun ham mustaqillik bizga tarixiy madaniyatimizni, urf-odatlarimizni, an'alarimizni qaytardi. Tasviriy san'at borasida ham unitilgan madaniyatimizni yana o'rganib ta'lim jarayonida qo'llamoqdamiz.

O'zoq yillar davomida ta'lim va san'at sohasida turli muammolar yuzaga kelib uning yechimini topish lozim edi. Bu masalalarni hal qilish uchun O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi»ning 1997 yil 29 avgust, IX- sessiyada qabul qilinishi. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 may «O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida»gi 203-sonli qarori bilan bir qancha o'zgarishlar sodir bo'ldi.

«O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim to'g'risida»gi Nizomning tasdiqlanishi, XTV ning 2000 yil 31 iyuldagi «Umumiy o'rta ta'lim muassasa (maktab) larida o'quvchilar bilim darajasini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risidagi Muvaqqat Nizomni tasdiqlash haqida»gi 145-sonli buyrug'i, XTV ning 2001 yil 9 noyabrdagi 163-sonli buyrug'i bilan «Sinf rahbarligi to'g'risidagi Nizom»ning qobul qilinishi, 1999 yil 18 avgustdagi «Umumiy o'rta ta'limning DTSlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 390-sonli qarori bilan boshlang'ich ta'lim (Tasviriy san'at va chizmachilik fani) DTSlarining tasdiqlanishi, XTVligi tomonidan «Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar ta'lim tayyorgarligi darajasi reytingini joriy etish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish haqida»gi 133-sonli buyruqning qabul qilinishi va bir qancha boshqa qaror va buyruqlarning joriy etilishi fan, san'at, madaniyat, texnik taraqqiyotning rivojlanishiga yetakchi omil bo'lmoqda.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va «2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2004 yil 21 may) Farmonida fan-texnikani rivojlanishi, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar bilan ta'lim sohasining mutanosib bo'lishi talabi qo'yilgan. Vazirlar Mahkamasining ko'rsatmasiga binoan Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlarini modernizasiya qilish va uni tajriba-sinovlardan o'tkazish ishlari tashkil etildi.

Tasviriy san'at mutaxassislarning bokalovr darajasida bilim olish uchun tasviriy san'at va chizmachilikning tarixiy taraqqiyoti, fan asoslari va uning metodikasidan to'liq habardor bo'lishlik lozim bo'ladi. Qadimgi va hozirgi tasviriy

san'at, me'morchilik, chizmachilik o'zgarishlari, ularning o'qitilishida ham ko'p o'zgarishlar mavjud. Shuningdek, grafika, rang tasvir, kompozisiya, haykaltaroshlik, badiiy qurish-yasash, amaliy san'at va ularni o'qitish metodikasi.

Tasviriy san'atdan nazariy bilimlarni berish bilan amaliy bilim, kunikma va malakalarni egallashni ham talab qiladi. Bu esa o'qituvchining o'z ustida mehnat qilishi, mashqlar bajarib borishi predmetni yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun yordam beradi. Ana shularning qonun-qoidalari bu asosini tashkil etadi.

Qadimgi va O'rta asrlar tasviriy san'ati. Qadimda old Osiyo mamlakatlari bo'lgan Misr madaniyat markazlaridan biri hisoblanadi. Ikki daryo oralig'idagi – Frot (Yefrat) va Tigr oralig'idagi yerlar bo'lib, bu yerlarda Shumer, Akkad, Vavilon shaharlari mavjud bo'lgan.

O'rta yer dengizi sharqidagi Siro – Fipikiya va Falastin, Kichik Osiyo va Shimoliy Suriya – xetlar va xurittlar mamlakati Mitann, Ossiriya va Urartu, shuningdek, qadimgi Eron davlati joylashgan.

Old Osiyo xalqlari xilma-xil etnik guruhlardan iborat bo'lgan, ularning turli va ko'p sonli yodgorliklari badiiy, tarixiy, katta estetik ahamiyatga egadir. Bu yerda me'morchilik yuksak darajada rivojlangan.

Old Osiyo san'atida ikki daryo oralig'ida ming yillar davomida Misrdan farqli o'laroq, qurilish material sifatida xom g'ishtdan foydalanilgan. Xom g'isht sharqiy va o'rta viloyatlarda tosh bilan birgalikda keng qo'llanilgan. Bu xususiyat turli tog'li viloyatlarga ham xosdir.

Qadimgi Misr san'ati tarixi bir necha ming yilliklarni o'z ichiga oladi:

Sulolalargacha bo'lgan davr (er.avv. 4 minginchi yillar);

Qadimgi podsholik (er. Avv. 3200 – 2400 yillar);

Markaziy podsholik (er.avv. XX1 – X1X asr boshlari);

Yangi podsholik (er. Avv. XU1 – X11 asr);

So'ngi davr (er.avv. X1 asr – 332 yillar).

Greklar tarixchisi Gerodit Nil sohilini «Nil inomi» deb yuritgan. Bu yer nomi Assuandan-to O'rtayer dengizigacha oqib o'tgan bo'lib, bu buyuk daryoning mamlakat hayotidagi katta ahamiyatini belgilaydi.

Qadimgi Misr sulolalari davridagi san'at va madaniyat shu davr podsholarining hayoti bilan bog'liq tarzda rivojlangan. Birinchi va ikkinchi sulola podsholar – fir'avnlr davri fanda «Arxaik Misr», shu davr san'ati esa «arxaika» deyiladi. Bularning yaratilishi Misr uslubining dastlabki namunalari. Misr san'atida uchunchi sulola Joser (er.avv. 3000 – yil) tomonidan qurilgan «Zinali piramida» hisoblanadi, uning balandligi 60 metrga yetgan bo'lib, 7 zinapoyali qismlardan iborat.

To'rtinchi sulola davrida shu xildagi qurilishlarni yakunlovchi navbatdagi qurilma Giza ehromi bo'lib u firaun Xefu davriga xos. Me'mor Xemiun tomonidan qurilgan bu ehrom o'lchami jihatidan eng kattasi hisoblanadi. Uning balandligi 146,6 metr, asosining har bir tomoni 233 metr. Bu piramidani qurish uchun 100 mingta qul ulganlarining tuldirlilishi hisobiga 30 yilda barpo bo'lgan. Ehrom 2 - 3 tonnalik 2300000 dona ohak toshlardan terilib bunyod etilgan. Shu davrlarda ham podsholikning kuch-qudratini ular qurib ketgan exromlar, qurilishlar belgilagan. Xafra ehromida, ibodatxonasining pastki qismida 57 metr uzunlikdagi sifenks – yo'lbars shaklida Xafraning o'zi ifodalangan bo'lib, bu me'morchilik bilan haykaltaroshlik o'zaro uyg'unlashgan asardir.

Beshinchi sulola ehromlari 70 metrlik kichkinaroq qilib yaratilgan edi. Lekin, shu davrda ibodatxonalarni bezatishga ko'proq e'tibor beriladi. Turli ustunlar, ularning kurinishlariga turli shakllarni berish boshlanadi.

Fir'aun Suxra ehromi – beshinchi sulolaning tipik qurilmalaridan biridir. Nil qirg'og'idagi ibodatxonaning tepa qismidan yoritilgan yo'lagi zalga olib boradi.

Fiva ustalari tomonidan yaratilgan firaun Mentuxotepa III (Kair muzeyi) haykali shunday monumental haykaltaroshlik sirasidan.

O'rta Misr rassomlarining yangi izlanishlaridan xarakterlisi asosan hayvonlarni aks ettirishda namayon bo'ldi. Shunday mashhur naqshlardan biri Beni Hasandagi Ximxotepa II qabristonidan topilgan ov mavzusidagi mayda qush va yirtqich hayvonlarning aksi tushirilgan tasvirlardir.

«Giksos» qobililarining 1700 yildagi yurishi natijasida yuzaga kelgan bu bosqinchilik 100 yil davom etadi. Mamlakatni qayta birlashtirgan Yaxmes I XVIII

sulola fir'avni amalga oshiradi. Bu davrda Kornak va Metsinet – Abu ibodatxonalarini devoriga rasmlar ishlangan. Me'morchilik ansambilida qo'yilgan fir'avn Amenxotep III ga bag'ishlangan monumental haykallar bunga misoldir.

XIV asr er. oldin xalqlar quyosh xudosi Atonga sajda qilishni targ'ib etdi. Shu sabab u o'zini nomini o'zgartirib Ehnaton («Aton ruhi») deb atashni buyuradi. Poytaxtni esa Fivadan maxsus qurilgan O'rta Misrdagi Axetaton shahriga ko'chiradi. Amarna davrida haykaltaroshlik rivojlandi. Nafertiti va podsholarning haykallari portret asarlarining yuksakligini bildiradi.

XIX sulola hukmronligi davrida fra'vunlar Seti I va Ramzes II ning podsholigi rivojlandi. Bular ham o'z ibodatxonalarini qurib san'at va madaniyatda ancha oldinga qadam bosdilar.

Eramizdan avvalgi 332 yillarga kelib Misrni grek – makedoniyaliklar bosib oladi. Lekin shunday bo'lsada haykaltaroshlik rivojlanishi davom etgan.

Ikki daryo oralig'i san'atida Ossuriya eramizdan avvalgi XIII-VII asrlarda ko'pincha san'at saroy amaldorlarining mulkiga aylana boshladi. Shu davrlardan boshlab saroy san'ati paydo bo'ldi deyish mumkin.

Babil san'atida ham eramizdan avval VII-VI asrlarda Kasset sulolasi inqirozga uchragandan keyin Vavilon davlati iqtisodiy va siyosiy jihatdan kuchsizlanib qoladi. Uning yerlarini Ossuriya, Elamit va Suriya ko'chmanchilari egallaydi. Bu davrda ham ko'plab me'morchilik binolari barpo etiladi.

Qadimgi yunon san'ati davrida bir qancha orderlar paydo bo'ldi. Shulardan biri doriy orderi edi. U aylana yostiqsimon ustun qoshiga ega. Ustun qoshi ustunga ustki og'irlikni o'tkazuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Order ustun boshining shakli va nisbatiga qarab ajratiladi. Keyingisi ioniy orderi bo'lib u sal keyinroq paydo bo'ladi. U ikki aylana sipiralsimon ustun qoshiga ega. Keyinroq korinf orderi yaratildi uning ustuni boshi savat shaklidagi o'ralgan egiluvchan bargga o'xshaydi.

Yunon me'morchiligida Parfenon ibodatxonasi alohida o'rin tutadi. Afina xudosi atab shunday maqol ham mavjud. «Agar sen Afinada bo'lmagan bo'lsang sen tuyasan, bo'lganda ham hayojonlanmagan bo'lsang, eshaksan».

Parfinon bir qaraganda oddiy turt burchakli binoga uxshaydi. Bino shu darajada ulug'vorki, u yetti mujizaning biri sifatida bekorga aytilmagan. Eradan avval 5 asrda haykaltarosh Miron «Disk otuvchi», «Nayzaboz» haykalini yaratgan.

Fidiy - Parfinon haykalini bezagan 12 metrli Afina haykali hozirgacha saqlanmagan bo'lsada u haqida materiallar bor. Shu davrda Iskandar Zulqarnayning sevimli haykaltaroshi Lisipp baquvat odamlarni tasvirlagan. Poleklet esa «Qilichboz» kabi jasur kishilarni tasvirlaydi, Afrodeta obrazi ayollar ko'rinishini tasvirlanishi bo'yicha juda mashhur bo'ldi.

Misrning Rimliklar tomonidan bosib olinganigacha bo'lgan davrni Ellinizim davri deb yuritiladi. Bu davrda yerni odamlarga shaxsiy mulk sifatida berilishi davlatning asosiy yutuq'i bo'ldi. Aleksandiriya, Pergam shaharlaridagi Rados badiiy ustaxonasida ko'plab haykallar yaratilgan. «Nika Samofgakiyskaya» ham shu joyda g'alaba timsoli sifatida yaratilgan.

Qadimgi Rim, Vizantiya san'ati ham nihoyatda gullagan davrlar edi. G'arbiy Yevropada feodalizm davri to'la qaror topishi bilan buning gullagan davri Roman davri deb yuritila boshladi. XI - XII asrlarga to'g'ri kelgan bu davrda san'at rivojlangan edi. Ayniqsa bular me'morchilikda ajralib turadi. Goteka san'ati Roman san'atidan o'zining realligi bilan ajralib turadi. Goteka davrining harakterli tomoni feodalizmning shaharlarga kirib borishi bilan bog'liq.

U - UI asrlar feodalizm davriga o'tish davri bo'lib bu davrni Sharqiy xalqlar san'ati egallaydi. Hindiston, Iron, Xitoy, Yaponiya, Markaziy Yevropa san'ati rivojlangan davrlardan biridir. Hindistonga buddizm dini o'z ta'sirini o'tkazgan va ko'proq diniy haykallar yaratilgan, xalq amaliy san'ati rivojlangan. Sharq xalqlarining san'atida turli simvollar orqali usha davr hayotini, madaniyatini anglab olish imkoniyati mumkin bo'lgan. Shu kabi har bir xalqning o'z san'ati mavjud bo'lib u vaqtlar o'tishi bilan u sayqallashib keldi. Narsaning o'ziga qarab rasmini chizish masalalari ham shu tariqa rivojlanib bordi. U rassom va haykaltaroshlar asarlarini to'ldiruvchi vositalar sifatida qo'llanilib keldi. Mustaqil janr sifatida Ispaniya va Gollandiyada un yettinchi asrning ikkinchi yarimida paydo bo'ladi. Biz narsaning o'ziga qarab rasmini chizish tarixiy taraqqiyoti

to'g'risida aytib o'tdik. Shu narsalar kollejlarda turkumida yaqin yillardagina amalga oshirila boshladi. Ammo bularning barchasi rassomchilik va pedagogika bilim yurtlarida avvaldan o'qitib kelinar edi. Ularda tasviriy san'atning tarixi bilan bog'langan holda narsaning o'ziga qarab rasmini chizish darslari ham olib borilgan.

## **1. 2. O'zbekiston xududida san'at va madaniyatning rivojlanishi va rasm chizish tarixi.**

O'zbekiston tasviriy san'atining rivojlanishini o'rganish uning qadimgi tarixiy taraqqiyoti bilan bog'lanadi. Respublikamiz hududidan topilgan ko'plab topildiqlar, haykallar badiiy va anatomik jihatdan mukammal qilib ishlangan. Dilvarzin tepa xarobalaridan topilgan «Devatto boshi» haykali bir qarashda nafis, nozik xislatlar ifodalangandek ko'rinsa ham yuz qiyofasini kuzatganda uning ichki dunyosini bilib olish mumkin.

Haykaltaroshlikdagi Fayoztepa qoldiqlaridan topilgan Buddha, Dilvarzin tepadan topilgan boshiga toj kiygan «Kushon shahzodasi» va boshqa o'nlab haykallarni misol qilib keltirish mumkin. Yevropaning mashhur haykallaridan o'rganilib kelinayotgan modellar yoniga ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan Kampirtepadagi «Budda», Dilvarzin tepadagi «Devatto boshi» kabi haykal namunalarining nusxalarini ham qo'shsa bo'ladi. Shuningdek Afrosiyobdan topilgan devoriy suratlarda odamlarning haqqoniy ko'rinishlari aks ettirilgan.

O'zbek halqi o'zining qadimiy yuksak madaniyati va san'ati bilan fahrlansa arziydi. Buni O'zbekiston xududida olib borilgan arxeologik qazilma ishlari yaqqol isbotlaydi. Xususan, Varaxsha, Afrosiyob. Xalchayon, Tuproq Qal'a, Bolalik tepa, Ayrtom, Dalvarzin tepa, Ko'y qirilgan qal'adan topilgan yuksak badiiy saviyada yaratilgan ko'plab me'morchilik obidalari, devoriy rasm, haykaltaroshlik asarlari, amaliy san'at buyumlari fikrimizning dalilidir.

Bu noyob qazilmalarni izlab topishda L.I. Rempel, G.A. Pugachenkova, V.A.Bulatov, M.Ye.Masson, V.A.Shishkin, A.A.Asqarov, Ya.G'ulomov kabi arxeolog va san'atshunos olimlar samarali mehnat qildilar.



Qo'y qiralgan qal'a miloddan avval III-IV asrlarga oid yodgorlik bo'lib To'rtko'l shahridan 22 kilometr o'zoqlikda joylashgan.

Shuningdek, unda shohlar, askarlar, g'alaba zallari bo'lgan. Ibodatxona binosi ikki qavatli bo'lib, diametri 44,4 m., balandligi 9,5 m.ni tashkil etadi. Devorga loy olingan joy suv bilan to'lg'azilib, handakkaga aylantirilgan. Devor orasida o'q otadigan tuyniklar bor. Bino ichida 8 ta gumbazli xona bo'lib, undan devoriy rasmlar, idish-tovoq, tobut, xaykalchalar, devoriy naqshlar topilgan.

Bular orasida arfa chalayotgan ayol va qo'sh baraban chalayotgan erkak kishi, shuningdek, qisq ko'zli, qulog'iga sirg'a taqqan, gulli kuylak kiygan ayol rasmlari alohida e'tiborga loyiqdir.

Devoriy rasmlarda ko'plab ayollar tasviri uchraydi. Erkaklar tasviri ham mavjud. Saroy zallarida devoriy rasmlar bilan bir qatorda ganchdan tayyorlangan relyeflar, haykallar ishlangan va ular ustidan ranglar berilgan. G'alaba zalidagi relyefda shoh va uning atrofida ayyonlar aks etgan, boshqa xonadagi relyeflarda esa kiyik, anor, shuningdek, uzum daraxtlari tasvirlangan. Bu devoriy rasmlar va xaykallardan tasvirlar umumlashma shaklida tipiklashtirilgan obrazlar bo'lib, qadimgi san'atkorlarning yuksak mahoratidan darak beradi.

Fayyoz tepa - eramizning I - III asrlariga oid budda ibodatxonalari majmuasi bo'lib Termiz shahridan 15 km narida, 1968 - 76 yillarda topilgan. Fayyoz tepa devorlari puxta qilinib xom g'ishtdan qo'rilgan. U uch qismli (markaziy qism, ibodatxona va xo'jalik) binolardan tashkil topgan. Ibodatxonadan balandligi 6 metrli erkak va ayol, shuningdek, muqaddas daraxt tagida o'tirgan odam va uning yonidagi ikki rohib tasvirlangan xaykallar topilgan. Fayoz tepa Eron qo'shinlari, keyinchalik arab istilolari natijasida butunlay vayron bo'lib, qum ostida qolib ketgan.

Tuproq qal'a-miloddan avval I- asr va milodning VI asrlariga oid qadimgi shahar qal'a xarobasi. U hozirgi Qoraqalpog'istonning Beruniy tumani xududida bo'lib, u 1938-1950 yillarda tekshirilgan. Buning asosini saroy, unga tutash Ark tashkil etadi. Ark maydoni 40 m., balandligi 25 m. bo'lgan saroyda 8 ta zal bo'lib, ular bo'rtma naqsh, relyefli xaykallar, devoriy rasmlar bilan bezatilgan.

Devoriy rasmlar ganchli devorga mineral bo'yoqlar bilan ishlangan. Tasvirlarda oq, qora, ko'k, zangori, pushti, qizil, sariq, och va to'q yashil, jigarrang, binafsha ranglardan foydalanilgan.

«Qizil xona» deb nomlangan xonada daryo manzarasi, hayvon, qush, baliqlar tasvirlangan.

Bolalik tepa-Termiz shahridan 30 km shimolda joylashgan qo'rg'on qal'a. Qal'ani 1953 - 55 yillarda arxeologik qazishlar orqali yer ostidan topilgan. Qal'a V-VI asrlarda yaratilgan deb taxmin qilinadi. Qal'a ichida o'n uch xona bo'lgan. Bu qal'adan sopol, shisha, musiqa asboblarning siniqlari, chilim kabilarning bo'laklari topilgan. Xona devorlari devoriy rasmlar bilan bezatilgan. Bu rasmlar mehmondorchilik mavzusida bo'lib, loysuvoq ustiga yelimli bo'yoqlar bilan ishlangan. Bu kompozisiyadagi ranglar rassomning katta mahoratidan dalolat beradi. Odam tasvirlarida maxsi, chopon, belbog', zirak kabilar ham aks etgan.

Varaxsha-Buxoro shahridan 40 km g'arbda joylashgan qal'a xaroba. Arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, bu yerda miloddan ming yil avval odamlar yashagan va ularda tasviriy san'at yaxshi rivoj topgan. Varaxshadagi eng katta bino 9 ga.ni egallagan va balandligi 10 metrni tashkil etgan. U binoda xukmdorlar saroyi va ibodatxona, askarxona, aslaha xonalar bo'lgan. Saroyda xonalar ko'p bo'lib, ulardan biri qizil xona hisoblangan. Uning devorida ov manzarasi aks ettirilgan bo'lib, tasvir ko'proq qishg'ish - kulrang, sariq ranglar bilan ishlangan. Mazkur rangtasvirning ayrim namunalari Sankt - Peterburgdagi Ermitajda saqlanmoqda.

Ayrtom-Termizdan 18 km. uzoqlikda, Amudaryo qirg'og'ida joylashgan qadimiy shahar, 1932 yilda topilgan. Qazish ishlari jarayonida turli xaykal va frizlar qazib olingan. Ulardan arfa, qo'shnay, ud, nog'ora chalayotgan sozandalar, qo'llarida gulchambar, meva va idishlar ko'targan ayollar va erkaklar tasvirlangan. Bu frizlar ishlanish uslubi va kompozisiyasi jihatidan Shimoliy Xindiston xaykaltaroshligiga juda o'xshab ketadi. Buning sababi I-II asrlarda Buddha dinini O'rta Osiyoga kirib kelishi va tarqalishi bilan bog'lanadi. Ular o'zining badiiyligi jihatidan nihoyatda yuqori saviyada ishlangan.

1938 yilda Ayrtomdan I-II asrlarga oid Budda dini ibodatxonasi ham topilgan. U yerda maxsus xujralar, Budda xaykali bo'lgan. Yuqorida qayd qilingan frizlar shu ibodatxonalarni bezagi bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Dalvarzin tepa-Andijon viloyatining Dalvarzin qishlog'ining chekka qismida joylashgan turar joy harobasi hisoblanib, u 1952 yilda topilgan. U davrimizning ikkinchi asriga to'g'ri keladi. Yer osti qazilganda u yerdan bronza quyish ustaxonasi, tosh yotqizilgan ko'chalar, g'alla omborxonalari, turli uy jihozlari, sopol buyumlar topilgan. Dalvarzin tepada qadimda qishloq xo'jaligi, metall bilan ishlash, tasviriy va amaliy san'at rivojlangan. Yer ostidan naqshli idishlar va odam xaykallari ham topilgan. Bu ganchdan ishlangan ayol kallasi eramizning II asrida yaratilgan deb taxmin qilinadi.

Afrosiyob-Samarqand shahar yonbag'ridagi haroba. U eramizning miloddan avval V-VI asrlarga to'g'ri keladi. Afrosiyobni qazish ishlari XX asr boshlarida boshlanib, xozirda ham davom ettirilmoqda. Qazilma ishlari natijasida qal'a-saroy borligi aniqlanib, uning qadimiy ko'rinishi rekonstruksiya qilingan. Uning tasviri quyidagicha ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu binoda bir necha xonalar bo'lib, ulardan biri mehmonxona ekanligi aniqlangan. Mehmonxonaning to'rt tomoniga turli devoriy rasmlar ishlangan. Mehmonxona devorlaridagi rasmlardan birida bir erkak va ayol suhbatlashib o'tirgani aks ettirilgan.

Umuman, mehmonxonaning devorlarida to'y safari, daryoda cho'milish, elchilarni qabul qilish marosimlari, ov kabilar aks ettirilgan.

To'y safari aks etgan rasmda oq rangdagi filda malika, saman ot mingan shoh-kuyov aks etgan. Shuningdek, malikani kuzatib ketayotgan kanizaklar ham tasvirlangan. Rasmdagi bir ayol qizil rangdagi kuylak, och kul rang ro'mol, sariq lozim, qora etik, qo'lida bilakuzuk taqqan ko'rinishda moxirona tasvirlangan. Bu rasmda saroy xodimlardan ikkitasi tualarga minib kuzatib kelayotganliklari tasvirlangan. Ulardan biri chol, ikkinchisi undan yoshroq, ikkovlari ham serbezak kiyimda tasvirlanganlar. Ularning bellarida kichik xanjar va qilich osilgan. qo'llarida xassa. Bu ularni saroy amaldorlari ekanligidan dalolat beradi. Ularning orqasida oq rangli parrandalar aks etilgan. Bulardan tashqari oq kiyimli ikki kishi

ham tasvirlangan. Ulardan biri qora rangli otni yugandan tortib kelmoqda, ikkinchisi orqaroqda qushlar yonida (u ot mingan holda bo'lishi ehtimoldan holi emas) tasvirlangan. Bu rasmlarni sinchiklik bilan kuzatar ekanmiz, bir necha yillar butun ajdodlarimiz mohir san'atkor bo'lib, yuksak badiiy asarlar yaratganliklariga ishonch hosil qilamiz.

M.Nabiyevning «Spitamen qo'zg'oloni», V.Volkovning «Shiroq jasorati», R.Choriyevning «Jizzax 1916 yil» asarlari namoyish qilinsa yaxshi natijalar beradi.

Bu suratlarni tahlili orqali Spitamen, Shiroq kabi asar qahramonlarini, Jizzax halqini erkinligi uchun o'zlarini qurbon qilishga ham tayyor ekanliklari ko'rsatildi.

Akademik T.N.Qori Niyoziy Ulug'bek ijodini o'rganib «Astranomicheskaya observatoriya Ulug'beka» nomli monografiyasini yozib nashr ettirdi. Ulug'bek nomida me'morial muzey bor, O'zMU, Farg'ona davlat dorilfununi, Samarqand me'morchilik-qurilish instituti, Kitob halqaro kenglik stansiyasi, shuningdek, bir qator ko'cha va maktablar ham uning nomiga qo'yilgan. Amir Temurdek, Mirzo Ulug'bekdek bobolari bo'lganligidan o'zbek halqi, shu qatori xar birimiz fahrlanamiz. Ulug'bekdek jahonga mashhur shaxsni yaratgan halq bu o'zbeklardir.

«O'rta Osiyo miniatyura rangtasviri» mavzusidagi Mahmud Muzzahibning «Sulton Sanjar va kampir», «Alisher Navoiy» Kamoliddin Behzodning «Juma masjidining qo'rilishi», «Sulton Xusayn Mirzo», A.Kallaning «Sahrodagi Majnun», Muhammad Samarqandiyning «Bo'ston» asariga ishlangan rasmlarini, Qosim ali tomonidan Nizomiyning «Xamsa» asariga ishlangan rasmlari, «O'zbek halqi qardosh sharq halqlari davrasida san'at madaniyat borasida yuksak yutuqlarni qo'lga kiritdi. Ayniqsa, VI-VIII asrlarda O'rta Osiyo tasviriy san'atida shunday katta burilish yasadiki, uni Yevropaliklar «San'atda O'rta Osiyo hoqonligi davri» deb yuritdilar. XIV asrlarda yashab ijod etgan va o'zining san'at maktabini yaratgan miniatyurachi rassom Kamoliddin Behzod edi. Uning ijodi haqida bir qator Sharqshunos olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar va xozirda ham olib bormoqdalar. Ingliz olimi E.Braun, shved san'atshunosi F.Martin, afg'on mutaxassisi A.Brejno, S.Etimodi, Xeraviy, pokistonlik olim M.A.Chig'atoy, O'zbekistonlik olim G.Pugachenkovalar va Rempel shular jumlasidandir.

XIV-XV asrlarda O'zbekiston hududida tasviriy san'at tez rivojlana boshladi. Samarqanddagi Shirinbeka, Bibixonim, Tumanaka maqbaralarida devorga ishlangan manzara rasmlarining ba'zi bo'laklari saqlanib qolgan. Bu davrda mo'jaz san'at ustalaridan Abdul Xay va Ahmad Bog'ishamoli nihoyatda shuhrat qozondilar. Samarqand rangtasviri maktabiga xos asarlar orasida as-Sufining astronomik traktatiga xos rasmlar mavjud bo'lib, hozirda ular Parijdagi milliy kutubxonada saqlanadi. Ulug'bek va uni xarami tasvirlangan mo'jaz rasm Vashingtondagi Frir nomli suratlar galeriyasida, «Xamsa»ga ishlangan mo'jaz surat esa Stambuldagi muzeylardan birida saqlanadi. Unda O'zbekiston respublikasining mustaqilligi, u o'zining bir necha ming yillik tarixiga ega. Uning betakror tabiat manzaralari, tarixiy me'morchilik obidalari, zamonaviy shaharlari, o'lkaning mashhur kishilari haqida ma'lumotlar bor. Ayniqsa, O'zbekistondan chiqqan mashhur sarkardalar, olimlar, san'at va adabiyot namoyondalari, Samarqand, Xiva, Buxoro, Toshkent, Shahrisabz, Qo'qon kabi shaharlarning me'morchilik obidalari tasavvurlarimizni kengaytiradi. Davlat arboblardan Amir Temur, Xusayn Boyqaro, Zaxiriddin Bobur, Amir Olimxon, fan va madaniyat arboblardan Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al Xorazmiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod va boshqa san'at asarlari mavjud.

«O'zbekistonning me'morchilik yodgorliklari» Samarqand, Buxoro, Xiva, Ko'hna Urganch, Shahrisabz, Toshkent, Qo'qon shaharlaridagi yodgorliklar dunyo madaniyati tarixida katta o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham o'zbek madaniyatida bularning o'z o'rnini bor. Bu borada O'zbekiston xududidan topilgan Ayrtom, Afrosiyob, Dalverzan tepa, Bolalik tepa v.b. eramizdan avvalgi va eramiz boshlarida bunyod etilgan me'morchilik, rangtasvir va xaykaltaroshlik asarlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, O'zbekistondagi IX-XIX asr me'morchiligi. O'rta Osiyo miniatyura rangtasviri, o'zbek halq amaliy san'ati namunalarini o'rganish bilan O'zbekistonning bu me'morchilik obidalari badiiyligi jihatdan Misr, Hindiston, Eron, Qadimgi Yunoniston va Rim yodgorliklari bilan bir qatorda turadi. Shuning uchun ham qishin-yozin Samarqanddagi «Go'ri mir» maqbarasi, Registon ansambli, Bibixonim masjidi, Shohi-Zinda ansambli,

Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Labi hovuzdagi madrasalar guruhi, Xivadagi Tosh hovli va Ichan-Qal'a, Shahrisabzdagi Oqsaroydan sayyohlar arimaydi. Faqat Samarqandga bir yilda 150 mamlakatdan bir yarim milliondan ortiq sayyohlar kelib ketishadi.

O'rol Tansiqboyevning «Tog'da», «Nikolay Karaxanning «Bug'doyzor», Isfandiyor Haydarovning «Oltin kuz» kabi asarlari reproduksiyasi va boshqalar.

O'.Tansiqboyevning «Tog'da», «Tog'dagi qishloq oqshomi», N.Karaxanning «Bug'doyzor», S.Abdullayevning «Kuz», I.Haydarovning «Oltin kuz», S.Raxmatovning «Boysunda» asarlari bugunda mashhurdir.

O'rol Tansiqboyevning «Jonajon o'lka» nomli asari rassom manzara janrida yaratgan asarlarining barchasiga oid umumlashma obrazi bo'lib hisoblanadi. Unda keng maydon, tog'liq kurinishlar. Lola terib yurgan bolalar. Avtomashinalarning kurinishi va boshqalar berilgan bo'lib unda vatanimizning go'zal manzarasi ifodalangan. Bu kabi oddiy kurinishlar har birimizning qishlog'imizga uxshashligi, qalbimizga yaqinligi bilan ham o'ziga rom etadi. O'quvchilarga bu haqida tushunchalarning berilishi o'z-o'zidan ham ularning bu asarlarni yahshi ko'rib qolishiga olib keladi.

Halq xunarmandlari ishlagan o'yinchoqlardan namunalar yoki fotosuratlar, halq ustalarining fotolari, o'yinchoqlarning ishlash tartibi chizilgan ko'rgazmali qurol, yog'och, steklar, loy, latta, suvli idish, fanera taglik kabilar bu san'atning jihozlaridir.

O'zbek kulol ustalaridan Xamro Rahimova, Umar Jo'raqulov, Abduraxim Muxtorov kabilar jahonga mashhur ekanliklari ular yasagan o'yinchoqlari jahonning turli muzeylarida hamda shaxsiy kolleksiyalarda saqlanadi. Ularni bir ko'rgan odam bir olam zavq oladi, bu haykallarni egasi bo'lishlikka xarakat qiladilar.

A.Maxkamovning «O'zbek ko'chma sirki» seriyasidan «Dorbozlar» asarini aytadigan bo'lsa, dorbozlik O'zbekistonda juda qadimdan mavjud bo'lib, xozirda san'atning mustaqil turiga aylangan. Ba'zi bir man'balarga ko'ra Soxibqiron Amir

Temur davrida dorbozlik san'ati nihoyatda rivoj topgan. O'zbek halqi san'atning boshqa turlari qatori dorbozlikda ham jahonga dong taratgan. Dorbozlik ayniqsa, Quva, Asaka, Qo'qon Toshkentda yuksaldi. Halq dorbozligi jamoalari O'zbekistonning deyarli har bir viloyatida bor. O'zbek dorbozlari 40-50 metr balandlikda qiya qilib tortilgan arqon ustida langar ushlab o'yin ko'rsatadilar. Ular dorda oldinga va orqaga yugurish, oyoqqa pichoq boylab chopish, ko'zni boylab sakrash, umbaloq otish mashqlarini bajaradilar. Dor o'yinlari, tosh ko'taruvchilar, xayvon o'rgatuvchilar, gimnastlar, qiziqchilar, askiyachilar yog'och oyoq bilan o'ynovchilarning chiqishlari bilan qo'shib olib boriladi. O'zbekistonda dorbozlik san'atini rivojlantirishda Asaka dorbozlaridan Toshkentboy Egamberdiyevning xizmatlari katta. So'ngi yillarda O'zbekistonda Shokirjon Toshkenboyev, Odashboy Ibroximov, Usmonjon Nishonov, Ergash Parpiyev, Xakimjon Parpiyevlar kabi dorbozlar shuhrat qozondilar. Biz ulardan o'zbek halqining san'atini dunyoga taratayotgan buyuk farzandlaridir.

Rassom A. Mahkamovning «O'zbek ko'chma sirki» seriyasidan, «Dorbozlar» nomli asarini va rassomlarning tabiat manzaralarini tasvirlovchi asarlaridan I.Xaydarovning «Oltin kuz», O'.Tansiqboyevning «Tog'dagi qishloq oqshomi», N.Karaxanning «Bug'doyzor» kabi asarlari yaxshi yaratilgan.

Umar Hayomning Navro'zga bag'ishlangan asarida bayon etilishicha, bu bayramni o'tkazish uchun qoidalar joriy qilingan. Xususan, uy-joylarni tozalash, gul va daraxtlar o'tkazish, ota-ona, yaqin kishilar bilan diydor ko'rishish, marhumlarning qabrlarini ziyorat qilish odat bo'lgan. O'zbek halqida Navro'z bayrami munosabati bilan sumalak, yalpiz somsa tayyorlangan. ʻshlar Navro'z kuni kechasini o'yin-kulgi bilan o'tkazishgan. Bayramning birinchi kunida otchopar, uloq, kurash, dor o'yini, sayllar o'tkazilgan.

Rassomlar M.Nabiyevning «Amir Temur», «Abu Rayhon Beruniy», T. Quriyozovning «Jaloliddin Manguberdi» kabi asarlari yaratildi. Bu asarlar o'zbek xalqining asrlar davomida orzu qilgan, og'zaki ijodida ulug'lab yurgan qahramonlarining obrazlaridir.

### **1.3. Kasb - hunar kollejlarda narsaning o'ziga qarab rasmini chizishda grafik tasvirlar.**

Tasviriy san'at fanining alohida eng muhim turlaridan biri hisoblangan grafika o'ziga xos xususiyatlarga ega. Grafika san'atini endi rasm chizishni o'rganayotgan hamma bolalar, kattalar ham turli rasmlar chizish va tasvirlash bilan boshlaydi. Qalamni qo'liga olib rasm chizmagan bolani hyech ham uchratmaymiz. Chunki, rasm hamma narsaning asosi deyiladi. V.A.Suxomlinskiy «Bolalarga jonim fido» nomli kitobida har qanday bolaning qalbini san'at bilan egallash mumkin, bu ham bo'lsa tasviriy san'at degan edi. Shuning uchun ham har bir odamning faqat san'at bilan ochiladigan qopqoqchasi bo'ladi deyiladi. Bu juda to'g'ri berilgan tasviriy san'atga tarifdir.

1. Grafika nima? Grafika san'ati oddiy qalam bilan chizilgan rasmlardir. Chunki qalamning ichidagi chizadigan qismini graft deyiladi. Grafika (yunoncha grapho – yozaman, chizaman) degani. Qalam tasvirning va bosma asarlarning (gravyura, litografiya, linogravyura, ofort va boshqa turlari bor) tasviriy san'atdagi umumiy nomi grafika hisoblanadi. Uning o'ziga xos tasviriy ifodasi va shakllari mavjud. Oldiniga grafikani termin sifatida yozuv va husnixatga (kolligrafiya) nisbatan ishlatilgan, keyinchalik esa XIX asr oxiri XX asr boshlarida yangi mazmun-mohiyatga ega bo'ldi. Grafika kitob va umuman matbaa ishi bilan bog'langan san'at turidir. Kitob tuzishda ishlatiladigan shiriftlar, illyustrasiyalar, miniatyuralar, qoralama rasmlar grafika san'atiga misol bo'la oladi. Kitob, jurnal, gazeta, plakatlarning ornamenti, arxitektoranikasi, barcha badiiy bezak va ifodasi grafikaning mahsulidir. Grafikaning avvalgi rivojlanish bosqichida chiziq va konturli tasvirlar qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik shtrixlash, dog'lash (pyatno) usullaridan foydalanildi. Rangli qalamlar, akvarel, guash, pastel ham grafika asarlarining ish quroli sanaladi. Pochta markalari, ekslibristlar, tovar belgilari, etiketkalar ham grafika mahsulidir. Asosan grafika turt turga bo'linadi: dastgohli grafika, gazeta-jurnal grafikasi, plakat va amaliy grafikaga.

Rasm chizish mashg'uloti tasviriy san'atning asosi hisoblanadi. Tabiatdagi barcha obyektlarning fazoviy shakllarini tekislikda yoki sirtlarda tasvirlashdan



iborat. Bunda tasviriy vosita bo'lib asosan chiziqlar va shtrixlar, ya'ni turli yo'g'onlikdagi chiziqlarning kesmalari xizmat qiladi. Chiziq hosil qiluvchi qurollarga qalamlar, muyqalamlar, bo'r, ko'mir, pastel, flamaster, pero hamda kesish, tirnash, o'yib olish bilan chiziqlar hosil qiluvchi asboblari kiradi.

Rasm chizish – tasviriy san'atning eng qadimgi turi hisoblanadi. Ibtidoiy odamlar tig'li buyumlar bilan tosh va g'or devorlariga turli xil tasvirlarni chizganlar. Eng qadimgi avlodlarimiz so'zlashuv qobiliyati yuzaga kelgunga qadar hayvonlarning rasmini (asosan yon tomondan ko'rinishi yoki sharpasini) tasvirlash orqali o'z tasovvuridagi fikrlarini bir-birlariga ifoda etganlar. Ovdan barori kelganda undan ta'sirlanib, o'zlari bilmagan holda kelajak avlodlar uchun nishonalar qoldirganlar.

Rasm chizishni o'rganish rassom, haykaltarosh, grafikachi, me'mor, dizayner, dekorativ san'at ustasi mutaxassisligining asosiy qismini tashkil qiladi.

Rasm chizish texnikasini egallash gravyura, haykaltaroshlik yoki tasviriy san'atning boshqa turlaridagidek murakkab texnik ijroni talab qilmasada, baribir ko'p chizish, o'rganish kerak bo'ladi. Lekin rasm chizishni barcha xohlovchilar ham o'rganib olishlari mumkin. Buning uchun qiziqish va ishtiyoq, qunt va toqat bo'lsa bas. Bunday qiziqarli va maroqli mashg'ulotni rasm chizishga ishtiyoq bilan to'lib toshgan bolalikdan boshlansa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Grafika san'atini rivojlantirishda buyuk musavvir Lenardo da Vinchi, Rafael Santi, Tisian, Mikilanjelo, Alberxt Dyurer, Rubens, Korovodjo, Botichelli kabi rassomlarning ijodini keltirib o'tish mumkin. Rus va Yevropa rassomlaridan Ivanov, Shishkin, Vasilev, Surikov, Fedotov, Repin, Konchelovskiy, Vasnesov, Fadiyev, Makovskiy, Kiprinskiy, Rokotov, Savrasov, Shubin va boshqalarni keltirib o'tish mumkin.

O'zbekiston tasviriy san'atida ham grafika san'atining yetuk namoyondalari bo'lgan va ijod qilmoqda. Birinchi grafikchi rassom Iskandar Ikramov, Q.Basharov, Kagarov, A.Mamajonov, N.Kolonov, N.Ten, M.Kagarov, M.Sodiqov, F.Qambarova, A.Boymatovlarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Bularning har biri hozirgi kunda ham grafika san'atini rivojlantirishda va kitoblarni bezatishda katta ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Dastgohli grafika turi tasviriy san'at asarlarining yaratilishi bilan o'ziga xosliklarga ega. Bu grafikada tasvirlarni hosil qilishda rassom alohida dastgoxlar yordamida asarlarini ko'paytiradi va nusxasini oshiradi. Asarlar molbertlarda, etyudniklarda, alohida katta yuzalarda tasvirlanadi. Grafik asarlarning har biri alohida kompozisiya bilan bajariladi va unda kerakli mazmun, maqsadning amalga oshishi aks etadi.

Gazeta – jurnal grafikasi to'g'risida ham ko'p gapirib o'tish mumkin. Kunlik hayotimizda uchrab turadigan va doimiy o'zimiz o'qib o'rganib boradigan gazetlar, jurnallar ham grafik bezatiladi. Ularning mazmunini oshirish maqsadida ko'plab suratlar beriladi. Faqat suratlarning o'zi emas, balki har bir yozuv, shriftlar, grafik suratlar uning mukammalligini oshiradi. Jurnal grafikasida ham barcha xikoya, roman, she'r, masal va boshqalarning mazmuniga u asarni to'la qonli bilish uchun yordam beradigan grafik suratlar ishlanadi. Bular o'qigan odamlarga u asarni yaxshi anglab olishlarida katta yordam beradi. Grafikchi rassomlardan Q.Basharov, Subxonov, I.Ikramov, A.Holiqov, T.Muhammedov, A.Mamajonov, N.Kolonov kabilar bu sohaning rivojlanishida muhim ishlarni amalga oshirdilar.

Plakat grafikasi ham tasviriy san'atning grafika turida alohida ahamiyatga ega bo'lib, u doimo ma'naviy, ma'rifiy ishlarni jonlantirishda, tashviqot va targ'ibot ishlarini amalga oshirishda katta yordam berib kelgan. Qadimdan uning kishilarni atrof – muhitini yaxshi bilib olishda ularga xamrohdir. Davlatni asrab qolish, kishilarni vatanparvarlik sari yo'llashda eng ta'sirchan vosita vazifasini o'tab kelgan. O'zbekistonning qurilishlari, mustaqilligi davrida, ikkinchi jahon urushi yillarida, paxtani asrash, g'allani-donni asrash, terib olish masallalarida ham bizga kumakchi bo'ldi.

Plakat sanati bilan shug'ullangan rassomlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Laylo Salimjonova, I.Chiganov, Q.Basharov, A.Vinidektov, I.Siglensev va boshqalarni keltirib o'tish mumkin.

Amaliy grafika bu grafikaning turida ishlangan suratlar kundalik hayotimizning eng zarur bo'lgan narsalari qog'oz pud, loteriya biletlari, zayom qog'ozlari, pochta markalari, konfet, yorliq, etiketka, pasport, guvohnomalar, turli joylarning, korxonalarining mahsulotlarini belgilari, turli mahsulotlar solinadigan idishlarning bezaklari, yozuvlari, qutichalarning sirtidagi suratlar va boshqa shu kabi bezatish ishlarida ishlatiladigan rasmlar turidir. Xozirgi kunda kompyuter grafikasi ham paydo bo'ldiki ko'p hollarda grafik asarlar shu texnik asboblar yordamida yaratilmoqda.

Biz mahsulotlarimizni, xonalarni, bayramlarni, afishalarni bugungi kunda bannerlar qilib bezatmoqdamiz. Bularning hammasi amaliy va komp'yuter grafikasiga misol bo'ladi. Turli texnik vositalar yordamida tasvirlanayotgan grafik asarlar o'z ko'rinishi bilan qo'lda tayyorlangan grafik asarlardan tubdan farq qiladi. Qo'l bilan bajarilgan grafik asarlar rassomning mahorati bilan yaratiladi va unda to'liq mazmun, maqsadlar aniq o'z ifodasini topadi. Bu original tasvirlar bo'lib hisoblanadi. Maxsus texnik vositalarda tayyorlangan grafik asarlar esa qaysidir jihatdan ko'chirib olingan ishlarga uxshash xolatni aks ettiradi.

Shuning uchun ham grafik asarlarni yaratishda rassomning qo'l bilan ishlaganlari albatta chuqur mazmun-ma'noga ega bo'ladi. Qaysiki grafikchi rassom o'z asarini kunlab, oylab, yillab yaratar ekan uning qimmatini ham shu qadar yuksak bo'ladi.

Tasviriy san'atning alohida turi hisoblangan grafikada ham janrlar mavjud. Shulardan biri natyurmort janridir. Natyurmortlar 17 asrning ikkinchi yarimida alohida nomlanib paydo bo'ldi. Shundan boshlab natyurmort grafikada ham yaratila boshladi. Ko'pincha asarlarni tuldish uchun dastlab qo'llanib kelgan edi. Shunday bo'lsada qalam tasvir, tushlarda turli materiallarga ishlangan grafikada ishlangan natyurmortlar paydo bo'lgan.

Natyurmortning grafik tasviri.

Grafikachi rassomlar ijodida natyurmort janri ham o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Rassomchilikning boshlanishidan har qanday qalam sohibi u bilan oddiy narsalarning rasmini chizishdan boshlaydi. Shuning uchun ham grafika

san'atida natyurmort muhim ahamiyat kasb etadi. Narsalarning rasmini chizish oddiylikdan boshlanadi. Bu narsalar ko'paysa u natyurmort bo'lishi ma'lum. Oddiy grafik asarlarda naturalar jamlanmasi aks ettiriladiki, u natyurmort asari darajasiga ko'tarilishi mumkin. Rassomlarning hammasi qanday sohada ijod qilishlaridan qat'iy nazar natyurmortlar grafikada asarlar bo'lib yaratiladi.

Meva va sabzavotlarni tasvirlash.

Natyurmortdagi kabi grafikada tasvirlanadigan mevalar, sabzavotlar tasviri ham ko'p hollarda ifoda etiladi. Mevalarning tasvirlarini ko'plab grafikchi rassomlar kitoblarga ishlagan rasmlarida aks ettiradilar. Tasvirlanadigan mevalardan olma, anor, behi, gilos, olicha, shaftoli, urik, uzum, yong'oq, anjir va sabzavotlardan tarvuz, qovun, kadi, oshqovorq, piyoz, turp, sholg'om, sabzi va boshqalarning rasmlarini har qanday rassom tasvirleydi. Har qanday grafik rasmlar o'zining ifodoviy vositalari bilan boshqalaridan doimo farq qiladi. Qalam tasvirda ham soya va yorug' joylarni ajratib olish bilan ularning xajmini berish mumkin. Bularni ko'plab rassomlarning ijodida kurish mumkin.

Turli idish, tovoqlardan tuzilgan natyurmort.

Natyurmortlarning hammasi turli narsalardan tuzilishini hammamiz bilamiz, ammo biz sezmagani yoki e'tibor bermagan ko'plab narsalarni doimiy anglab ham yetmaymiz. Bularning hammasi tasviriy san'at darslarida natyurmort bo'lishligini aytib o'tishimiz lozim. Jahon tasviriy san'atida natyurmort janri yetakchi bo'lib hisoblanadi. Insonlarning kunlik xayotida ishlatiladigan hamma narsalarning tasvirini ishlash, ularning turli chiqindi deb hisoblaganlaridan tashqari ham kundalik uy-ruzg'or buyumlarining tasvirlarini ishlash natyurmort bo'lib hisoblanadi.

Tashlandiq materiallardan natyurmort tuzish.

Biz bilamizki uydagi ruzg'or buyumlari, meva va sabzavotlar, turli boshqa materiallar hammasi ham natyurmort hisoblanadi. Endi turli tashlandiq materiallarchi ular ham natyurmort bo'lishi mumkinmi? Ha mumkin, ular ham tasviriy san'at fanining xom oshiyolari bo'lib hisoblanadi. Agar natyurmortni mavzuga moslab bajarishga erishilsa u ma'lum bir ma'noga ega bo'lib kishilarga

o'zgacha ta'sir etish kuchiga ega. Shunday yaratilgan asarlar jamiyatga foyda keltiradi. Bunda reallik va rassomning dunyo qarashi aks ettiriladi.

Mavzuli natyurmort tuzish.

Biz tasvirlayotgan hamma natyurmort chizish ishlari ham mavzuli natyurmort hisoblanivermaydi. Lekin tasviriy san'at fanida natyurmort janri alohida ahamiyatga ega bo'lganligi uchun turli tashlandiq materiallar ham asar darajasiga ko'tarilishi mumkin. Shuning uchun tasviriy san'at fanining asosini tashkil etadigan natyurmortlar mavzuli qilib tasvirlansa u kerakli mazmuni beradi.

Mavzuli natyurmortlar tasvirlanishi bilan boshqalaridan tubdan farq ham qilmaydi, ammo bajariladigan ishlarning asosiy ko'rinishlarida shu davrning nafasi bilinib turishi kerak.

Illyustrasiyalar ishlash usullari va ularning talqini.

Tajribali ustoz A.Mahkamov tomonidan «Sharq xalqlari ertaklari» kitobiga ishlangan illyustrasiyalar bidiiy jihatdan yuksak bajarildgan. Ulardagi realistik chizma asosida Sharq miniatyurasi ta'siri yaqqol sezilib turadi.

Feruza va Laylo Basharovalar Sh.Peroning «Ona g'oz ertaklari» ga bolalar dunyoqarashiga moslab realistik uslubda illyustrasiyalar yaratganlar.

Respublikamizda grafika san'atining mavzuli natyurmort chizishga oid tomonlari ancha rivojlanib bormoqda. Har bir rassomning ijodida natyurmort janriga murajaat qilishi shubhasiz. Bu rassomni boshqa materiallarning plastiklik, soya – yorug' kurinishlarini ham ajrata olishni o'rganadilar. Grafikaning hamma turlarida ham shtrixlash ishlari asosiy o'rinni egallaydi. Chunki har qanday obrazlar u natyurmort bo'lsa ham kurinishlariga asosan qalam yurgaziladi. Uning soya va yorug'liklari ajratilib ko'rsatib boriladi. Shundagina tasviriy san'atning grafika asari yaratiladi.

### **Birinchi bob bo'yicha xulosa.**

Tasviriy san'at darslarining kollejlarda o'qitilishi masalasi o'rganilib amaliyotni o'tar ekanmiz u joylarda dastur asosida narsaning o'ziga qarab rasmini chizish darslari ham asosiy bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun tasviriy san'at

tarixini va uning kelib chiqish tarixiy taraqqiyotini bilish bo'lajak o'qituvchilardan talab qilinadi.

Tasviriy san'atning qadimiy taraqqiyoti va uning xozirgi kungacha bo'lgan ahamiyatini ochib berar ekanman ba'zi bir xulosalarni ham aytishga to'g'ri keladi.

Kollejlarda tasviriy san'at fanining natyurmort chizish darslari grafik va rangtasvir ko'rinishida aks ettiriladi. Shunday bo'lgach kollej o'quvchilar hammasi buni chuqur egallagan bo'lishlari kerak. Ana shu jihatdan qaralganda xali kollejlarda darslar soati yetarli emas.

Asosan tasviriy san'at darslarini olib borish masalasi boshlang'ich ta'lim va tasviriy san'at ta'limi uchun o'qituvchilar tayyorlaydigan bo'limlarda o'rganiladi. Bolalarning hammasi biroz yuzakiroq darslarga qaraydi. Bu holatlarni bartaraf etish lozim. Bunda asosiy muammolar kerakli materiallarning yetishmasligidir.

Agar tasviriy san'atdan darslarni olib borish masalasida turli tabiiy materiallardan ham foydalanib ish yuritishning ba'zi jihatlariga diqqatni qaratilsa talab darajasida darslar tashkil etilib borilsa yana ko'proq imkoniyatlar ochiladi. Biz tarixiy taraqqiyoti bilan grafik va rangtasvirda narsaning o'ziga qarab rasm chizish darslarini olib borganimizda bolalarning qiziqishi ortganini ko'rdik. Bu bizning metodik ishimiz to'g'ri olib borilganini ko'rsatdi.

Ko'proq tasviriy san'at tarixi va rivojlanishi masalasiga tuxtalib uni chuqurroq o'rganish talabi bor ekanligiga ishontirish edi. Bu masala o'z yechimini topdi. Chunki talaba va o'quvchilar tarixini bilmasdan narsaning rasmini chizishda to'liq yutuqlarga erisha olmaydi. Shuning uchun ham tasviriy san'at darslarida narsaning o'ziga qarab rasmini chizish darslari doimo yetakchi vazifani o'taydi.

Tasviriy san'at darslarining hamma soatlarida ham narsaning o'zi bilan birga rasmlar chiziladi. Shularni bajarish u rangtasvirda yoki qalam tasvirda bo'lsa ham narsalar chizilishini ko'ramiz. Bular tasviriy san'atda turli janrlar bilan ataladi. Ma'lumki narsalar hamma asarlarda yordamchi vosita sifatida doimo qatnashib keladi.

## **2 bob. Kasb-hunar kollejlarda narsaning o'ziga qarab rasmini chizish metodikasi.**

### **2.1. Kasb- hunar kollejlarda dostgohli rangtasvir materiallari va bo'yoqlar.**

Dastgohli rangtasvir eramizdan oldin bo'yoqlarning poydo bo'lishi bilan boshlangan. Lekin uning yaratilishida xali materiallarning o'rniga turli toshlar, yog'och buyumlarning sirtida ishlangan. Shuningdek, tasviriy san'at asarlarining dastgohli rangtasvirda yaratilishi ham unchalik ko'p tarixga ega emas deb qaralsada u tarixiydir.

#### **1. Dastgoh rangtasvir uchun kerakli jihozlar.**

Akvarel muyqalamda oson olinishi, suvda yaxshi eriydigan bo'lishi kerak. Akvarel boshqa bo'yoqlardan qog'ozga yupqa qatlam tarzida yotishi, tekis, silliq surkalishi quyilib va bir joyga qatlam tarzida yig'ilib qormasligi bilan ajralib turadi. Akvarelda ko'p vaqt suv tegmasa xaddan tashqari quriqshab ketib uni ishlatish qiyin bo'lib qoladi. Shuning uchun chinni idishlar va tyubeklardagi akvarelni qarong'i va salqin joylarda saqlash lozim. Agar tyubekdagi akvarel qotib qolsa tyubekka shpres bilan suv yuborish yoki uni suvli idishga biror soat solib quyish tasuviya etiladi. «Leningrad» markali akvarel sifatli bo'lib hisoblagnadi. U plasmassa idishlarda ishlab chiqariladi. Unda bo'yoqlarning 24 xili mavjud bo'lib plasmassadan tayyorlangan politra ham joylashtirilgan.

Qog'oz akvarel bilan bajariladigan ishlarning yaxshi chiqishida muhim rol uynaydigan materiallardan biridir. Bundan tashqari qog'ozlardan fon sifatida hamda oq bo'yoq o'rnida ham foydalaniladi. Qog'ozning turlari juda ko'p. Ko'pincha oq vatman yoki chizmachilikda ishlatiladigan turli oq qog'ozlardan (masalan: aleksandiriya qog'ozlaridan) juda unumli foydalaniladi.

Qog'oz sirtlarining bir oz g'adir-budur bo'lishi akvarelda bajariladigan ishlarning sifatli chiqishiga olib keladi. Hozir akvarel uchun maxsus qog'ozlar ishlab chiqarilmoqda. Ular etyudlar uchun muljallangan bo'lib 20-30 donasi kerakli ulchamda bir-biriga yelimlab quyilgan bo'ladi. Qog'ozdarni bir-biridan ajratib olishda bironta uchi o'tkirrok asbobdan foydalaniladi. Orqasiga quyilgan karton esa uni g'ijim bo'lishdan asraydi.

Planshit tasviriy san'at darslarida keng qo'llaniladi. Planshitga qog'oz tortishda uning turtala tomoni bir 1, 5 – 2 sm. buklanadi. Qog'ozning teskari tomoniga jiqqa xul latta suvini o'ziga shimib olguncha surtiladi. Chetki qayrilgan burchaklari esa quruqligicha qoldiriladi. So'ngra qog'ozning old tomoni aylantirilib quyiladi va u ham chetki tomonlariga tekazmasdan xullanadi. Undan keyin burchagidan oldin bir tomoni so'ngra qarama-qarshi turgan tomoni ham diagonal bo'yicha barmoq bilan bosib tortilishi lozim. Qolgan ikki tomoni xuddi shunday diagonal bo'yicha yelimlanadi yoki knopka bilan qistiriladi. Qirralari esa barmoq yordamida tekis qilib yopishtirib chiqiladi. Yelimlangan tomonlaridan hyech qanday tirishgan va qobariq joylar bo'lmasligi lozim. Xul planshit muttadil temperaturali joyda quritiladi. Shundagini u ishga yoroqli bo'ladi.

## 2. Dastgoh rangtasvirda ulardan foydalanish.

Yig'ma qopchiq ham etyudlar ishlashda ekskursiyaga chiqqanda juda asqotadi. Uning brizent matodan ixchamgina qilib tikib olish mumkin. Kerakli jihozlarni yig'ma qopchiqqa tartib bilan joylashtirish lozim uning yuqori qismiga tasmalar tikib qog'ozni mahkamlab quyish kerak. Pastki qismiga esa har xil o'lchamdagi chuntaklar tikiladi. Chuntaklarga esa suv uchun maxsus idish, latta, akvarel va xakozalar solib olinadi. Matarialni tikayotganda orasiga karton bo'laklar, qog'ozlarni buklanib qolishdan saqlaydi.

Mo'y qalamlar akvarel bilan ishlayotganda maxsus akvarel muy qalamidan foydalanish lozim. Mo'yqalamlar ikki xil bo'lib ularning bir xillari moyli bo'yoqlarga muljallangan. (yelimlash uchun muljallangan muyqalamlar bundan mustasno) ularning kunrinishiga qarab qo'yidagicha farqlash mumkin: yolpoq (moyli bo'yoqlar uchun muljallangan muyqalamlar) kurakcha va dumoloq shaklda



bo'ladi. Akvarel uchun ishlatiladigan mo'yqalamlar yumaloq bo'lib uch tomoniga qarab ingichkalashib boradi va ujuda mayda detallarni ishlash uchun qo'laylmik tug'diradi. Rasm ishlaganda qog'ozning yuzi buzilmasligi uchun bu mo'yqalamlar maxsus yumshoq yunglardan yasaadi. Akvarel muyqalamning olmaxon, suvsar yungidan yasalgan turlari mavjud.

Mo'yqalamning ishga yoroqli yoki yoroqsizligini bilish uchun toza suvga tiqib olib silkitish kerak agar shunda muyqalamning uchlari tuplanib qolsa-yoroqli, tuzib tursa-yoroqsiz bo'ladi. Muyqalamning bandida nomeri bo'ladi. Bu nomer muyqalam buy qismining kengligini bildiradi. Nomerdagi sonlar ortib borishi bilan yung qismining kengligini ortib boradi. Shuning uchun akvarel bilan ishlashda mo'yqalamning kerakli nomeri yuzaning katta yoki kichchikligiga qarab tanlanadi.

Tasviriy san'at darslarida ingichka mo'y qalamlardan ham foydalaniladi. Chunki ular bilan katta rasmlarni bo'yab bo'lmaydi. Bu haldagi mo'yqalamlar ko'proq mayda detallarni hamda dekorativ bezash ishlaridagi naqshlarni bo'yashda ishlatiladi.

Yuqorida nomeri kursatilgan yug'on hajmdagi mo'yqalam bilan katta rasmlarni bo'yash mumkin. Uningingichka uchi esa suratningmayda detallarini ishlash imkonini beradi. Umuman olganda butun ishni bitta mo'y qalamda bajara olish imkoni to'g'iladi. Shunda kuz hatto qo'l harakati uyg'unlashadi. Tajribali rassomlar ko'pincha ikki tomonida ham muyi bo'lgan muyqalamlardan foydalanadilar. Ularning maqsadi buyurtma berib tayyorlatish mumkin. Bulardan tashqari xar xil o'lchamdagi ko'rakcha simon yalpoq mo'yqalamlar ham ishlatiladi.

### 3. Politra va uni ishlatish usullari.

Politra – tasviriy san'at darslarida oddiy oq rangdagi yassi laganchadan politra sifatida foydalanish mumkin. Etyud ishlash paytida metaldan yachsalgan va sirlangan yoki plastmassadan yasalgan politralardan foydalangan maqul. Politranning eng yaxshi tomoni shundaki unga quyilgan bo'yoqlar aniq va ravshkn tiniq bo'lib ko'rinib turadi. Shuningdek uzoq vaqtgacha qurimasdan saqlanadi.

Politranning rangi oq bo'lganligi sababli bo'yoqlarning tuslari o'zgarmasdan kuzga tashlanadi.

Politradan foydalanish usullari va unga bo'yoqlarni joylashtirish tartibi kursatilgan. Bo'yoqlar kuzga qanchalik yoqin bo'lsa ularni bir biridan ajratish shunchalik oson va qulay bo'ladi.

Politranga ranglarni joylashtirishda muayyan tartibga rioya qilish o'quvchilarning sifatli ishlariga kuzlari va qullarini avtomatik ravishda xarakat qilishga va ishni tez bajarishlariga yordam beradi va ularni ortiqcha qiynab quymaydi.

Politranga oldin iliq rangshlardan sariq bo'yoqlar, keyin zarg'oldoq qizil, qovoqrang yoki jigarrang va nihoyat zangori, binafsha ranglar (bular sovuq ranglar jumlasidandir) quyiladi. Stakan suv olish uchun eng yaxshi idish hisoblanadi. Ekskursiyalarda, etyud ishlashda metal yoki shisha stakanlar yoki bankalar juda qul keladi. Akvarel bilan ishlashda suv olish uchun qo'llaniladigan idishlarning turlari xar xil bo'lishi mumkin.

#### 4. Turli mo'y qalamlar.

Qalamlar akvarel buyog'iga ishlangan rasmlarni yaxshi chiqishida muhim rol uynaydigan vasitalardan biridir. Tasviriy san'at darslaprida asosan o'rtacha yumshoqlikdagi qalamlardan foydalaniladi. «TM» markali qalam chizish uchun juda qulaydir.

Qalamlarning bir tomonida nomi, sungra esa qattqlik yoki yumshoqlik darajasi yozib quyiladi. «T» qattqlik ma'nosini anglatrsa uning yonidagi son qattqlik darajasini ko'rsatadi. «2 T» belgili qalam T belgili qalamdan qattqiqroqdir. Tasviriy san'at darslarida qattiq qalamdan nafis joylarni shtrixlashda foydalaniladi. Ular chizmachilik darslarida ham qo'llaniladi.

Och rangli ohira buyog'i – oxra sovuq rang quyosh rangiga chidamli lekin, oxrani temir idishda qorishtirish tavsiya etilmaydi. Chunki idishda kimyoviy reaksiya sodir bo'lib aynib kukarib ketadi.

Limon rang kadmiy uning asosiy xususiyati ko'rinishi jihatidan xiraroq biroq guvashga uxshab ketadi. Yorug'likka chidamli.

Yorqin, och – sariq tusli bo'yoq. Kurinishi limon rangiga uxshab ketadi, yorug'likka chidamli.

Sarg'ish jigarrang tusli bo'yoq. Bu bo'yoq sarg'ish jigarrang tusga ega bo'lib oxiraga uxshab ketadi, yorug'likka chidamli.

Sariq bo'yoq – buyaluvchan xususiyatga ega. Tusi jada yorqin, iliq qog'ozga yaxshi surkaladi. Kurinishi jihatidan ipakka uxshab ketadi. Bunga bargkaram yoki xovo rang «VTS» qo'shilsa hind sarig'i tusiga uxshab ketadi, yorug'likka chidamli.

Zarg'aldoq bo'yoq. Bu bo'yoq ham limon rang kadmiyga uxshab yorqin tusga ega. Suvni kamroq qushib eritish kerak. Qog'ozda surtilganda tekis yotmaydi. Quyosh nuriga chidamli.

Qizg'ish malla bo'yoq. Bu bo'yoq qizil jigarrangga uxshab ketadi. O'zining o'tva yorqinligi bilan ajralib turadi. Qog'ozga yuqaroq surtilsa kurinishi yumshoq, sarg'ish jigarrang tusini beradi. Yorug'likka chidamli.

Yorqin qizil bo'lib o'ta tiniq va kuchli ta'sirchan bo'yoqdir. Kurinishi iliq ang tusiga ega, shuning uchun qog'ozda ishlanganda bu bo'yoqni ehtiyotlik bilan kamroq ishlatish lozim. Uni yuvib tashlash qiyin bo'ladi.

Qirmizi rang bo'yoq. Juda kuchli tatimli bo'yoqlardan biri. Kurinishi qizil malinaga uxshab ketadi. Qog'ozga surtilganda tekis yotadi, lekin yuvib tashlash qiyin bo'ladi. Ishlatganda ehtiyot bo'lib foydalanish lozim.

Yorqin qizil rang. Bu bo'yoq ham juda o'tkir, yorqin qizil malinaga uxshab ketadi. Lekin sovuq tus beruvchi bo'yoqdir. Aslini olganda qirmizi bo'yoqqa juda uxshaydi. Yorug'likka chidamli.

Gilos rangli bo'yoq. Bu bo'yoq kurinishi jihatidan jigarrangga uxshab ketadi. Yorug'likka chidamsiz.

Zangori rang bo'yoq. (ultramarin). Bu bo'yoq kuk ranglar xisobida iliq tus beruvchi bo'yoqdir. Qog'ozga ishlatishda ehtiyotlik zarur. Chunki o'ta kuchli tatimlidir. Shuning uchun bo'yoqni yomg'ir yoki distellangan suvda eritish mumkin. Bu bo'yoq qog'ozga tekis surtiladi. Yorug'likka chidamliligi.

Moviy rang bo'yoq (kuk kobalt). Bu bo'yoq kurinishi jihatidan juda nozik va yoqimli kuk rangdir. Qog'ozga surkalganda juda tekis yotmaydi. Quyosh nurida ko'karib va qorayoib ketadi.

Moviy nilobi bo'yoq. Bu bo'yoq juda tiniq va yorqin ranglardan biridir. Sovuq tusli bo'yoq. Ehtiyotlik bilan muy qalamga kamroq olib qog'ozga surkash kerak. Quyosh nuriga chidamliligi.

Zangori va barg ranglar. Juda tiniq bo'yoqlar. Bu ikki bo'yoq bir-biridan tubdan farq qiladi. Sovuq tusga ega. Quyosh nuriga chidamliligi.

Mosh rang bo'yoq. Tamaki bargiga yaqin, sovuq tusli, yarim tiniq, rangi va fakturasi xiraroq. Quyoshga chidamliligi.

Jigarrang bo'yoq. Iliq, tiniq va yorqin ko'rinishga ega. Qog'ozga yaxshi surkaladi. Osonlik bilan yuvib tashlash mumkin. Quyoshga chidamliligi.

Shangof, yorqin qizil bo'yoq. Bu bo'yoq toza, tiniq yorqindir. Kurinishi jihatidan qizil zarg'oldoq rangli. Qog'ozga bir tekis yotadi. Osonlik bilan yuuvish mumkin. Quyoshga chidamliligi.

Sariq bo'yoqlar o'ziga xos tusga ega bo'lgan sariq bo'yoq. (sariq xrom) bu o'tkir tusli juda boy tus beruvchi och-sariq rangdan to tuq sariq beruvchi bo'yoqdir. (Bular qurg'oshindan tayyorlanuvchi bo'yoqlar qatoriga kiradi).

Och limon rangli bo'yoq. (Neopolitanskaya jeltaya) bu bo'yoq sariq rangli bo'yoqlar qatoriga kiradi. Ikki xil usulda tayyorlanadi. 1. Vulkondan madan usulida olinadi. 2. Suniy usulda olinadi.

Yorqin – oltin tusli sariq bo'yoq. (kadmiy sariq) juda o'tkir, yorqin iliq tus beruvchi bo'yoqdir. Quyoshga chidamliligi.

Hind sarig'i bu bo'yoq oltin tusli sarg'ish rang beruvchidir. Hindistonda, Bangilidishda sigir va tuyani xurma bargi bilan boqib uning siydigini filtirdan o'tkazib kimyoviy usulda ishlab hind sarig'ini ishlab chiqarganlar. O'tkir yorqin tusli tinq bo'yoqdir.

Och rangli sariq bo'yoq. (stronsion sariq) bu limon rangga uxshash bo'yoqdir.

Qizil bo'yoqlarni kenovar rang ham deyilgan.

Yorqin tusli qirmizi rang. Bu bo'yoqning bir necha turi mavjud. Kaktus usimligiga urug' quyuvchi hashorat (kosheniy, yavaa, Jazoir Ispaniyada bo'ladi. Bu xashoratni jonsizlantirib quritiladi va xovonchada yanchilikb un xoligi keltirilsa karmen nomli bo'yoq hosil bo'ladi. Bu bo'yoq quyosh nurida aynimaydi.

Akvarel bilan ishlashda ish joyi talabga javob beraldigan bo'lib jihozlanishi kerak. Shuningdek, plakat hamda molbertdan to'g'ri foydalanishni o'rganish qog'oz yuzalarini xar xil shkastlanishlardan extiyot qilish lozim. Akvarel bo'yoq bilan ishlash texnikasini puxta o'zlashtirish uchun dastlabki mashqlarni qora tuq jigar ranglarda bajargan maqul bu usulda ishlash monoxrol yoki grezayl metodida ishlash deb ataladi. Akvarel bilan ishlashda qo'yidagi izchillikka rioya qilinsagina bo'yoqda ishlangan tasvirlar talabga javob berishi mumkin.

1. Kerakli bo'yoq maxsus idishda suv bmilan aralashtirilib tayyorlanadi hamda qog'oz bulagiga surtib sinab ko'riladi;

2. Qog'oz sirtiga bo'yoq berayotganda muy qalam hamisha eritmaga rosmona botirib olingan bo'lishi kerak.

3. Ostki qavatdagi bo'yoq qurimaguncha navbatdagi bo'yoq qavati yotqizilmaydi. Keyingi qavvat tez quyilishi lozim, aks holda ostki qavvat yuvilib ketishi mumkin.

4. Akvarel bo'yoqlari bilan ishlashda oq bo'yoqdan foydalanilmaydi, chunki oq bo'yoq rolini oq qog'ozning o'zi bajaradi.

5. Quyilgan bo'yoq qavati ostidan qog'ozning sirti sezilib turishi lozim.

6. Akvarel bilan ishlashni o'rganishda amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan: bir rangning ustiga ikkinchisini qo'shib yangi tus xosil qilish mashqini olaylik bunda quyilgan har ikkala rang ostidagi qog'ozning sirti sezilib tursmog'i darkor. Shuningdek, sovuq tusli rang ustidan iliq tuslilarni qoplash orqali yangi rang tusini hosil qilish yullarini paxta o'rganish kerak. Bundan tashqari iliq rang ustidan sovuq tusli rang qoplash bilan ham qo'shimcha rang tusini topish mumkin. Ayrim hollarda quyilgan ranglarning yorug'lik darajalarini bir-birlariga tenglashtirish uchun ularning ustidan biror rangning suyuq kuchsiz eritmasi bilan qoplab chiqish tavsiya etiladi. Shuni esda tutish lozimki

muayan rang ikkinchi bir rang bilan qoplanganda yorug'likni qaytarish xususiyatidan maxrum bo'ladi. Lekin oldin qo'yilgan bo'yoq qavatining ravshanlik darajasi hamda tuyniganligi muhim ahamiyatga ega. Ustki quyiladigan rang qavvati esa doimo oxangdor juda tiniq bo'lishi va ostidagi rang tusini bug'masligi shart, Rang tuslarini xaddan tashqari tuq olish yaramaydi. Aks holda rangli tasvirda keskin kuzga tashlanadigan rang bog'chalari xosil bo'lishi mumkin. Akvarel bilan ishlashda bir rangning o'zidan har xil rang tuslarini xosild qilishni mashq qilish kerak. Yorug' och tusdagi rangni xosil qilish uchun suvni ko'proq, tuq tusdagi rangni hosil qilish uchun esa bo'yoqni ko'proq qo'shish kerak. Och tusdagi rangning hosil bo'lishini amalda kursatish uchun suvli stakanga qizil rang aralashtiriladi. Stakanda hosil bo'lgan aralashmaga toza suv qo'shilishni davom ettirsak bu rang tusining ochlashib borishining guvohi bo'lamiz. Aksincha aralashmaga qizil rang qo'shishni davom qildirsak mazkur rang tusining tuqlashib borishini ko'ramiz. Bu xildagi magshqlarni faqat ranglar yordamida bir necha marta bajarib kurish mumkin.

Ranglar tuyinganligining asta – sekin o'zgarib borishi haqida alohida tuxtalib o'tish kerak. Agar xramatik ranglar tarkibigna ,axramatik ranglar qo'shilsa ularning tiniqligi pasayadi. Natijada rangning tuyinganligi o'zgarib boshqa rang tusi hosil bo'ladi. Kulrang qanchalik ko'p qo'shilsa xramatik rang shunchalik axramatik bo'lgan kulrangga yaqinlashib boradi. Bu xildagi yorug'lik kuchlarini kamaytirish natijasida ranglarning tiniqlagini yo'qotish hamda xira kurinishdagi ranglarni olish mumkin.

Akvarel bilan ishlash malakalarini oshirishda asosiy va qo'shimcha ranglar ustida ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Rang ustida ishlash usullari ikki qismga, asosiy ranglar va qo'shimcha ranglarga bo'lib o'rganiladi. Olingan rang tuslari esa solishtirish yuli bilan aniqlanadi. Qo'shib topiladigan ranglar aralashtirish yuli bilan hosil qilinadi. Asosiy hamda qo'shimcha ranglapr ustida mashq qilinayotgan paytda naturaga yaqin bo'lgan ranglar tuslarini topish kerak.

## **2.2. Kasb-hunar kollejlarda narsaning o'ziga qarab rasmini chizish qoidalari.**

Naturadan rangli rasmlar ishlashga qaratilgan tasviriy san'at yo'nalishiga biz natyurmort deb ham ataymiz va u narsalarning jonsiz tasviri hisoblanadi.

Naturalardan ishlangan natyurmortlarni ko'plab rassomlar ishlagan. Asosan bu 17 asrlarning boshlarida Fransuzchadan olingan bo'lib jonsiz tabiat degan ma'noni beradi. Natyurmort Gollondiya va Ispaniyada paydo bo'lgandir. Natyurmortni birinchi egalari V. Xeda va P. Klass Gollondiyada. Ispaniyada esa F. Surbarandir. Tasviriy san'atning bu janri keyinchalik alohida o'rganildi va u san'atning eng yuqori ko'rinishiga mos bo'ldi.

O'zoq yillar davomida rassomlar narsalarning o'zini emas balki uni mavzularning ichkarisida tasvirlab keldi. Endilikda naturalarni mavzu asosida birlashtirib natyurmortning turli ko'rinishlarini hosil qilmloqdalar.

1. Narsalarning o'ziga qarab rasm ishlash masalasi maktab o'quvchilari uchun ham o'rganuvchi rassomlar uchun ham eng ishonchli bo'lib hisoblanadi. Buyuk rus rassomi I.Ye.Repin «naturadan mutasil rasm ishlash – ana shu eng oliy va ishonchli maktab» - deb yozgan edi. Haqiqatdan ham narsaning o'ziga qarab rasm chizganda uning to'liq ko'rinishini aks ettirish imkoniyati paydo bo'ladi. Rangtasvirda natyurmort ishlash borliqdagi narsalarni asl holatida ko'rishga imkon beradi.

### **2. Natyurmort tuzish qoidalari.**

Natyurmort tuzishning tayyor resepti, formulalari yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Chunki natyurmort uchun tanlanadigan narsalarning o'zi ham uni ishlayotgan kishining qanday rassomchilik bilimiga ega ekanligi bilan bog'liq.

Tasviriy san'atni o'rganishda hamma vaqt ham natyurmort ishlashdan o'quv soatlari boshlanadi. Bu natyurmort ishlash jarayonida rassomchilikning asosiy qonuniyatlarini o'rganib oladi va bu usul rasmini o'rganishda asosiy vositadir. Bilamizki, natyurmort fransuzcha so'z bo'lib «jonsiz tabiat» degan ma'noni anglatadi. Bu janrda asosan musavvir insonni o'rab turgan atrof-muhitdagi narsalar

kundalik turmushda qo'llaniladigan buyumlar, oziq-ovqatlar, idish-tovoqlar, gullar, mevalar, qushlar va hayvonlarning tulumlari va boshqalarning tasvirlanishidir.

O'quv mashg'ulotlarining muvafaqqiyatli chiqishi ko'p jihatdan vazifaning aniq maqsadga yo'naltirilganligiga bog'liq. Mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishi tanlanadigan buyum va narsalarga bog'liq. Zerikarli vazifa har qanday o'quvchini tez charchatadi. Shuning uchunham tasvirlanayotgan natyurmort mazmunli va qiziqarli bo'lishi, har tamonlama yetuk hamda turli nuqtalardan qaralganda aniq, yaxlit hamda chiroyli ko'rinishi lozim. Shundagina o'quvchi uchun natyurmort ishlash yaxshi kayfiyat berib, kutarinkilik baxsh etadi.

Natyurmortni tasvirlash jarayonida o'quvchilar quyidagi qoidalarga amal qilishlari lozim:

1. Buyumlarni qog'oz yuzasiga kompozision jihatidan to'g'ri joylashtira bilishi;
2. Quyilgan naturadagi buyumlarning birini ikkinchisiga bo'lgan nisbatlarini aniq qilib belgilay olishlari;
3. Chizilayotgan narsalarning perspektiva qoidalariga aniq rioya qilinishiga e'tibor barish;
4. Natyurmortning ranglarini berish jarayonida ham uniyeng ketma-ketligini saqlanishiga ahamiyat qaratish;
5. Chizilayotgan buyumlarni tuslari jihatidan to'g'ri tasvirlashga erishish;
6. Quyilgan natyurmortdagi asosiy buyumlarni aniqlash.

Natyurmortni taglikka yoki stol ustiga quyishda ko'p o'ylab, har tarafdin qarab keyin quyiladi. Naturani quyishda rahbarning yordami kerak bo'ladi. U buyum va narsalarni bir necha marotaba turli holatlarda ko'zatadi va maqul kelgandan keyin uni bir xil xolatda quyib kuradi. Natura ma'qul bo'lgach uning yahlitligi hisobga olinadi va chizish uchun tayyor bo'lgan hisoblanadi.

Kompozisiya ishlashda rang katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu tasvirlashning boshqa turlaridan ko'ra aniqroq fikrlarni bayon qilishda muhimdir. Tasviriy san'atning asosiy jihatlaridan biri bo'lgan kompozisiya masalalari hamma turlarida saqlanib qoladi. Grafikada kompozisiya, rangtasvirda kompozisiya,



haykaltaroshlikda kompozisiya, dekorativ kompozisiya, natyurmort kompozisiyasi va hakozalarni chizishda ham kompozisiya termenidan foydalanamiz. Bu asarlarning to'g'ri va mazmunli qog'oz yoki materiallarga joylashuvini ham taminlaydi.

#### 1. Rangtasvir kompozisiyasi haqida ma'lumotlar.

Rangtasvir kompozisiyasi tasviriy san'atda asosiy rol o'ynaydi. Uning yechimi rassomni ko'p o'ylashga chorlaydi. Rassom har qanday asarining kompozisiyasini ma'lum bir mazmunga bog'lab yaratadi. Narasalarning tuzilishi, joylashishi, soya va yorug'liklarning o'z o'rnida berilishi rassom asarini to'ldiradi. Rangtasvir kompozisiyasi qalam tasvirga nisbatan ko'rinishi jihatidan ham bo'lakcha ta'sirga ega.

Rassomlar narsaning o'ziga qarab rasmini ishlaganda ham unga ma'no berishga harakat qiladi. Shu rassomning yutug'i bo'ladi. Mavzu asosida rasm chizish ham tabiatdagi, hayotdagi, borliqdagi narsalarning o'z o'rnida tasvirlanishi asosida paydo bo'ladi.

Mavzuli rasm chizish uchun oldindan u o'rganilgan bo'lib kerakli etyudlar ishlanadi. Asar darajasiga ko'tarish uchun bir necha variantlar ishlab ko'riladi va uning yechimini topishga harakat qilinadi. Rassom Ro'zi Choriyev asarlariga e'tibor bersangiz uning asarlarida odamlar bilan tabiat manzarasi uyg'un ravishda jamlanadi. Sodda tabiat ko'rinishini odamlarning, dehqonlar, ishchi va mehnatkash ayollar, onalar, oila azolari, xalq qahramonlari obrazi tuldurib turadi. Asar sodda bo'lsada hammaga tanish manzarani eslatadi.

Odamlarning rangtasvirda tasvirlanishi, kompozisiyasi har qanday yirik asarning yechimida to'la aks etmasligi mumkin. Ammo oddiy tasvir katta yutuqlarga ega ham bo'ladi. Buyuk Italiyan rassomi Leonordo Da Vinchining «Jakonda» (Monna Liza) asarining kompozisiyasiga e'tibor bering! Butun dunyoga tanilib, hozirgacha o'z mavqiyini saqlab kelayotgan bu asar nim kulgi ostida bir ona obrazi turganini ko'rasiz. Uning go'zalligi, mimikasi, shu davrga xos bo'lgan

kiyinishi, orqadagi manzara bilan to'ldirilgan. Manzara asarga xalaqit bermaydi. Uning ma'zmuniga ko'proq odamlarning tushunishi uchun yordam beradi.

Harakatdagi odamning rasmini rangda bajarish masalasi bir oz murakkabroq bo'lib uni biz rassomchilik tilida rangtasvir tez bajarilganlarini esa ko'pincha etyud deb yuritiladi. Rasmlar kompozitsiyasiga oid odamning harakatli rasmlari tasviriy san'at darslarida ham alohida soatlarda berilgan. Bolalar uni dars jarayonida mashq qiladilar. Harakat qilinayotgan odam tasvirini bir necha marotaba nabroskalar qilib olinsa uni bajarish keyin osonlashadi.

Gruntning rangi kartinaning koloritiga juda katta ta'sir qiladi shu bilan birga bo'yoqlarni optik aralashtirishga xal qiluvchi rol o'ynaydi. Tonli grunt olish uchun kerakli pigment yoki pinen eritilgan moy bo'yoq qushish mumkin rangli yoki tonli bo'yoqqa qushilgan bo'yoqqa rangtasvirga chuqurlilik, tasvrotlilik va tuyinganlik baxsh etadi.

Rangtasvir amaliyotida rassom oq, yorqin kulrang, qizil, jigarrang, tuq jigarrang va tonli ggruntlardan foydalanadilar. Oq grunt yorug'likni tuliq aks ettiradi. Va bo'yoqlarni intensivligini oshiradi. Tuq rangli gruntlar yuqori quyuq qatlamni quyganda chuqurlikni bera oladi. Ko'pincha rangli yoki tonli gruntlarning ba'zi bir joylari chizilmasdan qoldiriladi yoki shaffof ranglar bilan qoplanadi. Rembrant kulrang jilva beruvchi qora grunt dan rubens qizil jigarrang va umbra rangli Livetskiy esa netral yashil. Borovikovskiy netral kulrang grunt dan, Bruyulov esa yorqin jigarrang, Aleksandr Ivanov esa yorqin oxira rangli grunt dan, Repin esa oq grunt dan foydalangan olda kartinalar yaratgan.

Karton uchun emulsion grunt.

Karton oldin ikkala tomondan texnik jelatil yoki sifatli durodgorlik yelimi bilan yelimlanadi. Karton 4 – 5 % issiq yelim eritmasi bildan yelimlanadi. Yelim surtishlan oldin karton panera yoki padramnikka mixlar bilan mhkamlanadi. Yelim keng chutka bilan surtiladi Kartoning bir tomoni quriganidan sung ikkinchi tomoniga ham yelim surkaladi. Yelim quriganidan sung emulsion grunt beriladi.

Tonli grunt olish uchun unga pigment qushish mumkin. Masalan, yorqin oxira, qizil oxira va boshqalar.

Karton uchun emulsion grunt tayyorlash.

Bir oz suvga oldindan ruhli oq bo'yoq yoki bur va pigment yaxshilab aralashtiriladi. (pigment rangli grunt olish uchun aralashtiriladi)

Oldindan tayyorlangan yelim suvda eritiladi. Keyin bu eritmaga olif qushiladi va yelimli suv bilan yaxshilab aralashtiriladi. Olingan emulsiyaga suvda eritilgan bo'yoq yoki bur qushiladi va suyuqlik yaxshilab aralashtiriladi. Tayyorlangan aralashma qizdiriladi. Oq bo'yoq yoki bur yelim bilan teng aralashishi uchun aralashtiriladi. Shuni esda tutish lozimki oq bo'yoq o'rniga bur ishlatilsa emulsion gruntga xos bo'lgan xususiyat suruvchanlikni kuchaytiradi.

Bunda bo'yoqlardagi moyni surib olib bo'yoqlarning mustahkamligini kamaytiradi. Bog'lovchisini yuqotgan moy bo'yoqning rangi xiralashadi. Kartonga emulsiyalni grunt uch martadan quritib surkaladi. Karton osib quyilgan holda quritilsa xamma yog'i teng quriydi.

Xolstni podravnikka tortish.

Gruntlangan xolstni podravnikka tortishda uni namlamaslik kerak. Chunki u quriganidan sung mayda yoriqlar xosil qilib bo'yoqlarning bog'lovchilarini shiladi. Bu esa bo'yoqlarni rangsizlanishigagina emas balki ularning mustahkamligiga ham ta'sir qiladi. Gruntlangan yoki toza xolst oldiniga podramnikni burchaklarga vaqtinchalik mix bilan qoqib chiqiladi. Keyin xolistni o'rta qismidan iplari podramnikka paralel xolga kelganidan sung qoqib chiqiladi. Shundan keyin mixlar padramnikni o'rtasidan tortib ung va chap tomonga qarab tortib chiqiladi.

Xolst mahkamlangandan sung podramnikning burchaklaridagi mixlar sug'irib tashlanadi. Xolstni podramnikka tortish uchun maxsus qisqichlardan foydalaniladi. Xolistni qoqishda kichik va urtacha podravniklardan mixlarning oralig'i 3 –4 santimetrдан kattalari uchun esa 6 – 8 smdan quyiladi. Xolist konus simon mixlarda qoqiladi. Bunday bajarilgan ishlarda rasmlar to'liq o'zining ko'rinishlarini beradi. Shuningdek rangtasvir chizish uchun tortilgan xolstlarning burchaklariga uchburchakli taxtacha qo'yiladi. Bu ham ramkaning qiyshayib qolishidan saqlaydi. Bunday ramkalarda bajarilgan suratlar o'zoq vaqt saqlanadi.

Bunday asarlar hozirgi kunda ko'plab topiladi va ularning hammasi ham o'z davrining san'atini yaratmoqda. Bir vaqtlar Ovroqpa uyg'onish davri rassomlari butun dunyo ko'zqusida bo'lgan bo'lsa, hozir har qanday rassom asarlarida ko'p qirrali rangtasvir asarlari kompozisiyasini ko'ramiz.

Dunyo tabiati xilma-xil ko'rinishlarga ega va bu rassom asarlarida o'zining ifodasini topadi. Televideniya, kino, video, foto, kompyuter grafikasi shunchalik rivojlanib ketdiki, rassomlarning asarlari ularning oldida xuddi yo'qdek bo'lib qolmoqda deydi ba'zi rangtasvir san'atini tushunmagan kishilar. Lekin bu hych ham bunday emas. Rassom tabiatning ko'rinishiga o'zining rangini, tushunchasini, borlig'ini qo'shib tasvirleydiki buni hych qaysi texnik apparat hych qachon bajara olmaydi.

Rassom kompozisiyani, borliqni ko'rinishlarini o'z obrazlari bilan, xayolida kechgan ichki tuyg'ulari asosida yaratadi. Shuning uchun ham har bir asar o'ziga xos qimmatga ega. Rassom asari hych qachon takrorlanmaydi. Bir-biriga o'xshash joylarni ko'rish mumkin lekin, uning aynan o'zi bo'lmaydi.

### **2.3. Kasb-hunar kollejlarida narsaning o'ziga qarab rasmini chizishning shakl va usullari.**

Mustaqillik sharofati bilan yaratilgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talim soxasini o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xolos etish, yuksak manaviyat va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda ularning sifatlarini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish nazarda tutadi.

Oliy o'quv yurtlarida bo'lg'usi tasviriy sanat o'qituvchilarini tayorlashda tasviriy sanatni o'qitish metodikasi kursi alohida o'rin tutadi. Chunki, talaba o'qitish metodlarini bilmasdan turib kollejdagi tasviriy san'at darslarini olib bora olmaydi. Shu kabi umumiy o'rta talim maktablarida darslarni talablar darajasida o'ta olmaydilar. Shuningdek, bo'lg'usi o'qituvchilarni maktablarda olib boriladigan amaliy mashg'ulotlari ham buni talab etadi. Shuning uchun har qanday o'qituvchi nutq madaniyatiga va qobiliyatiga ega bo'lishi shart. Ayniqsa talabalar

tomonidan amaliy mashg'ulotlar uchun dars qo'llanmalarini tayyorlashda o'qitish metodikasiga doir adabiyotlar nihoyatda qo'l keladi, bo'lg'usi o'qituvchilar uchun yaxshi bilimlar lozimki, maktabda amaliy bezak sanatini o'rganish bir qator vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

O'qituvchilarning badiiy ijodiy qobiliyatlari va badiiy didini o'stirish;

Tasviriy va amaliy bezak sanati yuzasidan bolalar bilimlarini kengaytirish;

O'qituvchilarning tasviriy malakalarini rivojlantirish;

O'zbek xalq amaliy sanatini milliy badiiy an'analari bilan tanishtirish;

Bolalarda tasviriy sanatega mehr uyg'otish;

O'quvchilarning ahloqiy mehnat, estetika tarbiyasiga ko'maklashish;

O'zbek tasviriy va xalq amaliy sanati, uning jahonga mashxur ustozlari bilan faxrlanish, xisiyotini tarbiyalash;

O'qituvchi nutqini ravonlashtirish kabi.

Kollejlardagi darslarni ko'rishdan oldin umumiy o'rta talim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish metodikasi kursida sanatini o'rganish metodikasini alohida ko'rib chiqish kerak.

1 va 7 - sinflar uchun mo'ljallangan "Tasviriy sanat" darslarida "Sanatshunoslik asoslari", "Dekorativ kompozitsiya" bo'limlari mavjud bo'lib ular "O'zbek xalq rassomi O'rol Tansiqboyev ijodi", "tasviriy san'atning tili", mavzularida suhbat o'tkazish, turli buyumlardan natyurmort chizish, yo'lsimon, kvadrat, to'rtburchak, doira shaklida naqshlar ishlash, idish – tovoq, kiyim – kechak, kitoblarni ichki va tashqi bezagi uchun eskizlar ishlash, adabiy asarlar uchun tayyorlashga doir topshiriqlarning barchasi yoshlarda ijodiy qobilyat va fantaziyani o'stirishga, illyustratsiya tayyorlashga doir ijodiy qobilyat va fantaziyani o'stirishga qaratilgan bo'lib, ularning badiiy fikr doirasini kengaytirish hamda badiiy didini o'stirishga xizmat qiladi. Tasviriy san'at - badiiy sanat bezagi sanati sanatning teatr, kino, musiqa kabi tasviriy sanat turi ham mustaqil ahamiyat kasb etadi. U o'z nomiga ko'ra tasviriy san'at, ya'ni turmushda qo'llaniladigan narsalarning san'at darajasiga ko'tarilishidir. Tasviriy san'at san'atning turli xil turlari mavjud bo'lib ulardan buyumlar, ko'chalar, maydonlar, istiroxat bog'lari,

ishlab chiqarish korxonalari, o'quv – tarbiyaviy muassasalar, sport va madaniy inshootlarni bezatishda ham foydalaniladi.

Tasviriy san'at idish tavoqlar, kiyim – kechaklar, mebel, inter'feksterer bezagi gazlamalar bezagi va boshqa tur bezaklarda qo'llanadi.

Umumiy ta'lim maktablarida o'quvchilarni tarbiyalashda tasviriy san'at darslarining roli benihoya kattadir. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar maxsus ilmiy bilim asoslarini egallaydilar.

Kollejning 2-bosqichida o'tkaziladigan tasviriy san'at mashg'ulotlari 1 – bosqichdagi mashg'ulotlarining davomi bo'lib, o'quv topshiriqlari hamda har bir faoliyat turining oldiga qo'yilgan vazifalari sekin – asta murakkablashib borishi bilan farqlanadi. 2 – bosqich tasviriy san'at predmetining maxsus vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'quvchilarda tasviriy san'at asarlarini emosional idrok etishni tarbiyalash;

- xayotga va san'atga nisbatan aktiv estetik munosabatlarni rivojlantirish, turli-tuman ijtimoiy foydali faoliyatlarda dars jarayonida olingan bilim va malakalardan foydalanishga o'rgatish;

- bolalar ijodiy qobiliyat, badiiy did va tasavvurlarni o'stirish;

- o'quvchilarni xalq amaliy asn'ati asarlari go'zalligini xis qila olishga o'rgatish;

- o'quvchilarni o'z ish joylarini toz - ozoda tutishga, ishlanayotgan rasm mazmuniga ko'ra qog'oz o'lchami va xolatini (tik yoki yotiq) to'g'ri tanlay olishga o'rgatish.

Shuni aytib o'tish lozimki, bu vazifani o'zlashtirayotganda o'qituvchining rahbarlik roli muhim rol o'ynaydi. Biror bir predmetning rasmini chizishdan oldin tuzilishini, shakli, rangi, o'lchovlari, fazoviy xolatlarini aniqlab olish kerak bo'ladi. 2-bosqichda o'tkaziladigan tasviriy san'at darslarida ham o'quvchilar narsaning asliga qarab chizish, tema asosida, xotiradan, tasavvurdan rasm chizish, dekortiv – amaliy san'at, haykaltaroshlik bilan shug'ullanadilar, borliqni va san'atni estetik idrok qilishni o'rganadi. Tasviriy faoliyat turlari o'zaro

chambarchas bog'liq bo'lib, bir – birlarini to'ldirib turadi. O'quvchilar tema asosida rasm ishlash darslari uchun zarur bo'lgan ba'zi bir obraz va predmetlarning xomaki rasmini yoki loy, plastilindan xaykalini ishlaydilar. Mavzu asosida, xotiradan va tasavvurdan rasm chizish mashg'ulotlarida bajariladigan ishlarning samarali chiqishi ko'p jixatdan faoliyat turining ana shu qismiga bog'liqdir. O'rganish jarayonida ba'zi xarakterli qismlar, detallarning xomaki rasmi qalamda yoki bo'yoqda ishlanadi natijada anashu chizib olingan xomaki rasmlar asosida kompozisiya tuzish birmuncha oson bo'ladi borliqni estetik idrok qilish va unga taluqli bo'lgan namunaviy topshiriqlar tasviriy san'at programmasida ko'rsatilgan xamma mashg'ulot turlari shuningdek matematika, o'qish, mehnat ta'limi, kabi fanlar bilan ham uzviy bog'liq bo'lib, u yoki bu mashg'ulotlarga bog'liqdir.

Rassom ijodkorlar sinfi vakillaridan hisoblanadi va yaratayotgan har bir asari ma'lum qoidaga asosan bajarib tomoshabin hukmiga qo'yiladi. Shuning uchun talabalarga kompozisiya asoslarini o'rgatish jarayonida ijodkorlikka yo'naltirib boriladi. Talaba yangi ya'ni boshqa birov tomonidan yaratilmagan fikridagi ma'lumotlarni xolist yuzasiga bo'yoqlar yordamida tushiradi. Mana shu talabaning ijodi bo'ladi. Xo'p shunga talaba qanday erishish mumkin? Avvalo talaba oliy ta'limga o'qishga kelgunigacha maktab tasviriysanat o'quvi davomida mavzuli rasmlar chizishni o'rgangan bo'ladi. Agar shu davrda yaxshi o'zlashtirgan bo'lsa, keyingi talabalik davrida barcha ishlari ason ko'chadi va ijod mahsuli ham samarali bo'ladi. Bu ijodkorlikni shoirning she'r yozishiga yozuvchi hikoyasiga olim yangiligiga uxshatish mumkin. Chunki, ijod odam ruhiy olamida nima fikr etilsa shular yuzaga chiqadi, yangilik deb tan olinadi. Kompozisiya darsida yaratilgan asar ham shu kabi ijodiy jarayondir.

Tasviriy san'at darslarining kompozisiya fani masalasiga talabalarning ijodiy ish mahsulini ko'zatar ekanmiz, quyidagicha kamchiliklarning borligiga guvoh bo'lamiz.

- Kompozisiya mavzusini tanlashda ikkilanishlar borligi;
- Kompozision tasvirlash vositalaridan to'g'ri foydalana bilmaslik;

- Mashhur rassomlar asarini mustaqil ijodiy tahlil qila bilmaslik;
- Bajarmoqchi bo'layotgan mavzudagi kompozitsiyaning echimini topa olmaslik;
- Kompozitsiyaning mustaqil ijodiy jarayon ekanligiga befarqlik;
- Ko'proq tayyor rassomlar chizgan asarlarga to'g'ridan – to'g'ri taqlid qilish yoki ko'chirib chizishga harakat;
- Kompozitsion markazni aniqlashning norealligi va boshqalar;

Xush bunday kompozitsiya ishlashdagi xato va kamchiliklarni qanday talabalarning ijodidan bartaraf etish mumkin. Kompozitsiyaning bajarilishiga birinchidan hamma vaqt talaba o'zining bilimi bilan tayyor turishi kerak. Bu bilimlarni oliy o'quv yurtining badiiy grafika fakulteti tasviriy san'at yo'nalishi bo'limida, dizayin va rassomchilik oliygohida, san'at kollejlarning tasviriy san'at bilan mashg'ul bo'ladigan sohalarida o'rganiladi. Ammo kompozitsiya alohida fan sifatida bo'lsada u barcha rangtasvir, qalamtasvir va boshqa mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida o'rganib boriladi. Shuning uchun kompozitsiyaning asosini qalamtasvir, tasviriy san'at tarixi fanlari egallaydi. Kompozitsiyada ko'proq shu o'rinda o'rganganlari asosida yangi asarlar yaratishga harakat qilinadi.

Agar rasm chizishni, rang berishni, asarlarni to'g'ri tahlil qilishni yaxshi o'zlashtirgan bo'sa u kompozitsiya yarata oladi. Tasviriy san'at darslari deb biladigan bu oliy va o'rta maxsus ta'lim rassomchilik yo'nalishida o'rganilgan fanlar tizimi unga tayorgarlikdir. Buning uchun avvalo talaba quyidagilarga to'liq amal qilish kerak buladi.

1. Qalamtasvirda yaxshigina rasm chiza olishi, buda nabroska (qoramalar ), xomaki tasvirlar, narsalarning chizilishini o'rganishi; tabiatni chiza olishi kerak.
2. Rangtasvirda ham chizganda borliqdagi ranglarni aniq ajrata bilishi, bunda etyudlar chizib uni umumlashtirishni bilishi;
3. Rassomlar chizgan tasviriy san'at asarlarini tahlil qilib mazmunini, rangini, tuzilishini ko'raolishi lozim. Shunda u kompozitsiya yarata olishi mumkin



bo'ladi. Lekin shuniham unutmaslik kerakki, qanchalik falsafiy, dunyoviy fikr yurita olsa, voqeylikni to'g'ri anglay bilsa u shunchalik boy fikrga, ega bo'ladi. Shuning uchun talaba hamma voqealarga benazar tasavvurga ega bo'lmasligi lozim.

Kompozisiyani o'g'atish masalasida o'zlashtirilgan bilimlar ko'nikmalar g'oyat katta o'rin tutar ekan. Ko'proq mustaqil mavzular tanlab, uning mazmunini oshirishga harakat qilmoq kerak kompozisiya masallari bo'yicha buyuk o'yg'onish davri rassomlari Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Tisian, Mekelanjelo, Alberxt Dyurer, kabi, yana sharq musavvirlari miniatyura ustasi Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahib, Murod Samarqandiy, Ahmad Kallalar asari kompozisiyasiga murojad qilish lozim. Ular har bir chiziqqa jon atoa eta olgan tasviriy san'at ustalaridir.

Kompozisiyani tushuntirish masalasi I. Shoroxov, P. Neminiskiy, G'. Abdurahmonov kabi rassomlarning yozma asarlarida beriladi. Bu kompozision asarlarni o'rganish jarayoni ko'plab adabiyotlarda keltirib o'tilsada, u murakkab mavzuligicha qolmoqda. Demak kompozisiya yaratish to'liqligicha har bir insonning, rassomning ijodiy komilligi bilan bog'lanib ketadi. Faqat kompozisiyani o'rganish butun borliqni anglash va tasvirlash bilan o'zining mohiyatini ochib bera oladi. Bu esa yangi asar degan mustaqil bir mavzuni dunyoga keltirishi hamda boshqalarni hayratda qoldirishi bilan o'z ychimini topadi.

Men ham natyurmortni chizar ekanman uning yaratilishida oldingi o'rganilgan manbalarga tayandim. Oddiy ramkaga tortilgan buz materialni durodgorlik kleyi bilan va emulsiya bilan grunt qildim. Shundan keyin ularning qurishini ko'tib natyurmortning unga qalam tasvirda joylashtirdim. Narsaning o'ziga qarab rasm chizar ekanman tasvirni jonliroq chiqishi uchun moy bo'yoqdan foydalanib ishladim. Bu narsa albatta bir necha bochqichlarda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda qalamda chizib olgan bo'lsam uni aniq tasviri tayyor bo'lishini oddiy qog'ozdagi eskizga qarab bajardim. Eskiz naturaning o'ziga qarab ishlangan edi. Tasviriy san'at darslarida ham kollej o'quvchilariga darslarni xuddi

shu tarzda chizish kerakligini o'rgatib boramiz. Bu birinchi darsdagi bosqichli rasm chizish metodikasi talabiga to'g'ri keladi.

Ikkinchi bosqichda ishni bajarish ham shu tarzda moy bo'yoqni joy joyiga qo'yish bilan amalga oshirib borildi. Albatta bularning hammasi ketma ketlikga rioya qilindi. Uchunchi va turtinchi bosqichlar ham tasvirlarning to'la aks etishi bilan amalga oshdi. Narsaning o'ziga qarab rasmini chizish darslari talabiga to'g'ri kelgani uchun bu dars ishlanma sifatida olinishi ham maqsadga muvofiqdir.

Kollejlardagi tasviriy san'at darslarida narsaning o'ziga qarab rasmini chizish darslariga oid bu dars jarayoni o'quvchilarda doimo katta qiziqish o'yg'otadi. Mana shu jihati bilan ham narsaning o'ziga qarab rasmini chizish darslari doimo mazmunli chiqadi.

## **Xulosa**

Kasb-hunar ta'limi jarayonini olar ekanmiz, kollejlarda va umumiy o'rta ta'lim maktablarida narsaning o'ziga qarab rasmini chizish san'atini o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun bajarilgan barcha ishlar yaxshi. Bu o'quvchilarni natyurmortlar chizishga va san'at bilan yaqindan tanishtirishimiz bo'lib ham hisoblanadi. Shuning uchun ham narsaning o'ziga qarab rasmini chizish san'atining o'ziga xos tomonlarini, tarixiy rivojlanishini, san'atda tabiiy materiallarning ahamiyatini bilish kerak. Turli narsalarning chizilishi masalasi va dars ishlanmalari berib o'tilgan ijodiy ishlar rangtasvir san'atni kengroq qamrovli olishini belgiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki:

1. Narsaning o'ziga qarab rasmini chizish darslarida ham nutq madaniyati asosiy o'rin tutadi. Kollej tasviriy san'at darslari jarayonida o'quvchilarga narsaning o'ziga qarab rasmini chizish darslarini o'qitishga bo'lgan munosabatlarni ochib berish kerak. Bunda dekorativ narsalarning go'zalligini o'rganish ham qo'l keladi va rasm chizish ishlarida tabiiy materiallar asosiy manba ekanligi aytilib uning asosiy yo'llari ko'rsatilishi lozim,

2. Kollej o'qituvchilari dars jarayonida narsaning o'ziga qarab rasmini chizish bilan uning tarixini, rassomlar ijodini, rangtasvir san'atga oid kerakli ibora va ma'lumotlarni bilib borsalar dars samarali bo'ladi.

3. Dars bilan o'quvchini tabiiy materiallarini stilizasiya qilib olinishiga oid ko'rinishlarini ko'rsatsa yoki o'zlari o'zlariga shu tur ishlarini bajartirsa yaxshiroq bo'ladi.

4. Kollej va maktab o'quvchisi narsalarni gullar, turli shu kabi mevalar, tabiiy materiallarni natura sifatida ketma – ketlikda joylashtirishni darsda ko'rsatib, chizish yo'llarini ko'rsatib bersa to'g'ri ish qilingan bo'ladi.

5. Dars davomida narsalar tekisligi, surat tekisligi, fon va narsalardagi perspektiva qisqarishlari kabi rangtasvir va qalam tasvir qonun qoidalari o'rgatib borilsa. Tasviriy san'at va amaliy san'atga oid terminlar boshqa fanlar bilan ham bog'lanib kelishi mumkinligini o'quvchilar bilib oladilar.

Narsaning o'ziga qarab rasmini chizish darslarini shu kabi tashkil etish doimiy maktab va kollejlarda amalga oshirib borilsa Respublikamiz tasviriy san'atini mohir va usta rangtasvirchi o'quvchilar bilan to'ldiriladi. Tasviriy san'atni sevuvchi, mohir xalq rassomlari yetishib chiqishiga zamin yaratiladi.

## FOYDALANILGAN DABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Barkomol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: Sharq, 1997.- 64 b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda: Taraqqiyot kafolatlari, barqororlik shartlari. T.: O'zbekiston, 1997.-326 b.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida: T.: O'zbekiston. 2011-432 b.
4. Xasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. Toshkent. Fan, 2004 – 250 b.
5. Hasanov R. Tasviriy san'at asoslari. T.,G'ofur G'ulom matbaa konserni, 2008-347 b.
6. Xasanov R. Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llari. Toshkent. O'qituvchi 1986 – 96 b.
7. Sulaymonov A. Abdullayev N. Tasviriy san'at 7 – sinf. Toshkent. O'qituvchi 2006 – 60 b.
8. Bo'latov S. Rangshunoslik. Toshkent. O'zbekiston 2004 – 270 b.
9. Azimova B.,Nabiyev M. Natyurmort chizish va uni o'qitish metodikasi. Toshkent. O'zbekiston, 1991 – 126 b.
10. Madraimov N. Nutq madaniyati. T. 1990 – 86 b.
11. Oydinov N. O'zbekiston tasviriy san'at tarixidan lavhalar. O'qituvchi Toshkent. 1996 – 178 b.
- 12.Abdullayev N. San'at tarixi. 1 qism. Toshkent. O'qituvchi 1987 – 234 b.
- 13.Boymetov B., N.Tolipov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. Toshkent. TDPU. 2004 – 245 b.
- 14.Oripov B.N. Jahon san'ati tarixi. NamDU. 2003 - 120 b.
- 15.Oripov B.N.O'zbekiston san'ati va memorchiligi tarixi. NamDU. 2002 – 132 b.

16.Egamberdiyev A.,R.Hasanov., Nabiyev M. Va b. Rasm chizish va uni o'qitish metodikasi. Toshkent, O'qituvchi. 1974 – 345 b.